

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

NORMATOV NODIRBEK MAXMUDXON O'G'LIning

**“SALI HAQIQATI” VA UNING FRANKLAR HAYOTIDAGI  
O'RNI**

**mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: I. U. Kuzikulov**

**NAMANGAN – 2016**

<b>MUNDARIJA:</b>	
<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. FRANKLARDA IJTIMOIY MUNOSABATLAR.....</b>	<b>7</b>
I.1. Franklarda feodal munosabatlarning shakllanishi.....	7
I.2. “Sali haqiqati”da franklar ijtimoiy tuzumining aks ettirilishi.....	22
<b>II. “SALI HAQIQATI”DA FRANKLAR IQTISODIY VA MAISHIY TURMUSHINING YORITILISHI.....</b>	<b>36</b>
2.1“Sali haqiqati”da franklar hayotida jinoiy javobgarlik haqidagi ma`lumotlar...	36
II.2. “Sali haqiqati”da franklar maishiy turmushining tasvirlanishi.....	45
<b>XULOSA.....</b>	<b>54</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>56</b>

## K I R I S H

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbliги.** O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining e`lon qilinganligi o`zbek xalqi va davlatchiligining ko`p asrlik tarixida muhim voqeа bo`ldi. Hozirgi paytda, ayniqsa, mustaqillik natijasida xalqimiz va G`arb hamda Sharq davlalarining keng jamoatchiligidagi O`zbekiston tarixiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda O`zbekiston ham jahon tarixini o`rganishga alohida e`tibor qaratmoqda. Jumladan o`rta asrlar tarixi va feodalizmning paydo bo`lishi, rivojlanishi va uning yemirilishishidan iborat tarixiy taraqqiyot jarayonini o`rganish va bu davr bilan O`zbekiston tarixini solishtirish muxim axamiyat kasb etadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisol po`rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta`sir ko`rsatgan Sharq uyg`onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan<sup>1</sup>. IX-XII asrlarda Sharqda madaniyat gurkirab yashnayotgan bir paytda Yevropaning ayrim hududlarida endigina davlatchilik shakllanib jamiyat qonunlari shakllanmoqda edi. Shunday xalqlardan biri franklardir.

Tabiiyki, o`rta asrlar davri tarixi jumladan franklar tarixi manbalarda, turli mamalakatlardagi tarixchi olimlarning asarlarida o`z aksinini topgan. Hozirgi davrda bu masala borasida boy adabiyot mavjud. Lekin bu adabiyotlarning bir qismidan o`quvchilar foydalana olmasa, ko`plari noyob nashrlarga aylanib, ularni ulkan kutubxonalardan topish qiyin bo`lsa, ayrim kitoblar mazmun jihatidan u yoki bu ma`noda eskirgan bo`lib yangicha yondoshish ilmiy tadqiqot obekti sifatida alohida o`ringa ega. Tanlangan mavzuning dolzarbliги ham aynan shu bilan bog`liq.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти мавзусидаги халқаро конференсиянинг очилиш маросимиидаги нутқи. Халқ сўзи. 2014 йил 17 май.

**Bitiruv malakaviy ishining o'rganilishi darajasi.** “Sali haqiqati” va franklar tarixini yoritishga xizmat qilib kelayotgan tarixiy asarlarni yaratish o'sha davrdayoq keng rivoj topib V-VII asrda va undan keyin ham taniqli muarrixlar tomonidan davom ettirildi. Bularni yozilish davriga va joyiga qarab guruhlarga ajratish mumkin. Bundan tashqari yozilgan tipiga qarab tarixiy hujjatlar, sayohatnomalar, tazkiralar, moqomotlar, nomalar, yozishmalar, badiiy adabiyotlar va xokozolarga ajratish mumkin. Aynan shular bilan bir qatorda ularni yana o`rganilishi bo`yicha quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq.

1. V-VI asrlar davrida yozilgan manbalar
2. Xorijlik tadqiqotchilar tomonidan e'lon qilingan ilmiy maqolalar, monografiya va tadqiqotlar.

Birinchi guruh adabiyotlarining o`ziga xos jihat shundaki, mualliflar bevosita ana shu davrda yashagan va voqeal-hodisalarni ishtirokchisiga aylangan. Ana shunday manbalarga “Sali haqiqati” bizgacha yetib kelgan qadimgi matni qo`lyozma shaklida VIII-IX asrlarga oid bo`lib, franklar qiroli Xlodvig hukmronligining oxirgi yillari (507 va 511 yillar o`rtasida) yozilgan bo`lsa kerak. Shuni ham hisobga olish kerakki, “Sali haqiqati”ning asosiy matniga keyinchalik, ya`ni VI-VIII asrlarda qo`shimchalar kiritilgan. Qonunning ilk nashrlarida har xil terminlar ko`plab uchrab turadi.

Ikkinci guruhga g'arb olimlari va tarixchilarining asarlari, tazkiralari va ilmiy tadqiqotlari kiradi. Fransiya, Germaniya, Amerika tarixchilari ham “Sali haqiqati” haqida o`rganishgan. Masalan, Fyustel de Kulyanj, S. Shteyn, Vittix, Dopsh, N. P. Gratsianskiylarni asarlarini keltirish mumkin. Bular deyarli ana shu davr sharoitiga moslab yozilgan asarlardir.

Shuningdek, “Sali haqiqati” va farnklar davridagi manbalar jahon fani doirasiga kiriilgan bo`lsada ularning ko`pchiligi o`zbek tiliga tarjima qilinmagan. Manbalarning ilmiy asosda puxta hamda tanqidiy chog'ishtirma taxliliyalga oshirilmagan. Shu kabi omillar “Sali haqiqati” va uning franklar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o`rni mavzusini tadqiqot obekti sifatida tanlashga imkon beradi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishdan ko`zlangan asosiy maqsad shuki, yozilgan esdaliklar, nomalar, ilmiy asarlar va tarixy hujjatlar hamda davriy matbuot materiallari asosida “Sali haqiqati” va franklar tarixiga oid manbalarni ilmiy jihatdan obektiv va xolisona yoritishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni belgilab beradi:

- Franklarda feudal munosabatlarning shakllanishi o’rganish;
- “Sali haqiqati”da franklar ijtimoiy tuzumining aks ettirilishi taxlil qilish;
- “Sali haqiqati” da franklar hayotida jinoiy javobgarlik haqidagi ma`lumotlarni yaxlitlash;
- “Sali haqiqati”da franklar maishiy turmushining tasvirlanishi o’rganish;

**Bitiruv malakavuy ishining manbalari.** Tadqiqot jarayonida turli manbalardan foydalanildi. Tadqiqotning manbaviy asosini ilmiy adabiyotlar va davriy matbuot materiallari tashkil etadi. “Салическая правда”, “Томсинов В.А. История государства и права зарубежных стран”, “Хрестоматия памятников феодального государства и права стран Европы” kabi asarlar bitiruv malakavuy ishiga asos bo’lgan.

**Bitiruv malakaviy ishining ob’yekti.** Ilk o’rta asrlarda german qabilalarida o`ziga xos qonun-qoidalar shakllangan. Franklarning shunday qonunlari "Sali haqiqati"da to`plangan. "Sali haqiqati" va unda o`rin olgan qonun-qoidalarni o’rganish va taxlil silish tadqiqot ob’yektini tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi.** Mavzuning davriy chegarasi V-VIII asrning boshlarigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Aynan shu davrlarda “Sali haqiqati” va franklar tarixining o’rganilishi va manbalarning xilma-xilligi shakllandı.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy va uslubiy asoslari.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari, ma’ruza va nuqlarida ilgari surgan mamalakat taraqqiyoti va tarix – xalq ma’naviyatining asosi ekanligiga oid nazariy

xulosalari, Yevropa davlatchiligi tarixi haqidagi xaqli fikrlari ushbu muammoni o`rganishda muhim nazariy asos bo`ldi. Shuningdek, ilmiy-nazariy, ma`naviy-mafkuraviy ahamiyatga molik fikr-g`oyalar, metodologik va konseptual ko`rsatmalarga bitiruv malakaviy ishi mavzusini tadqiq etishda juda katta nazariy-uslubiy mazmun kasb etdi.

**Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Qadimgi dunyoning buyuk donishmandlari “Nimaiki qonuniy bo`lsa, u – adolatlidir”, deb ta’kidlaganlari bejiz emas. Ular shu tariqa aynan qonun adolat manbai va mezoni ekanini uqtirganlar, desak, har tomonlama o‘rinli bo‘ladi<sup>2</sup>. “Sali haqiqati” va franklar tarixiga doir hozirgi kunda mavjud dastlabki manbalardan o’sha davrning ma`naviy-marifiy va madaniy tafakkurini to`liq tasvir va tavsiflar beradigan hujjatlar galareiyasi mavjud bo`lib, ularni atroflicha va chuqurroq o`rganishga harakat qilingan. Ta’kidlash lozimki, ushbu ishda “Sali haqiqati” va franklar tarixi yoritilgan turli manbalar ilk bor kompleks ilmiy taxlil qilingan. Shuningdek, mavzuning ilmiy yangiligi milliy mafkurasiga tayangan xolda fransuz davlatchilik tarixida tub burilish yasagan “Sali haqiqati” va franklar tarixi manbalarini yangi dalillar asosida taxlil qilinishi bilan izohlanadi.

“Sali haqiqati” va franklar tarixini yoritgan manbalarni ilmiy yondashuv asosda o`rganish ishning muhim jihatlaridan biri. Tadqiqot jarayonida to`plangan va nazariy jihatdan umumlashtirilgan ma`lumolardan Yevropa davlatchilikning “Sali haqiqati” va franklar tarixini yoritshda, shu davrga oid maqolalar tayyorlashda, ma’ruzalar hamda darslar jarayonida foydalanish mumkin.

**Bitruv malakaviy ishining tarkibi.** Biiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to’rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyolar ro`yxaidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining hajmi 56 betni tashkil etadi.

---

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 23-йиллигига багишиланган тантанали маросимдаги маъруzasи. 2015 йил 6 декабрь.

## I BOB. FRANKLARDA IJTIMOIY MUNOSABATLAR

### I.1. Franklarda feodal munosabatlarning shakllanishi

Buyuk ko`chishlarning boshlanishiga qadar german qabilalariga mansub franklar Reyn daryosi quyi oqimidagi hududlarda yashaganlar. Franklarda urug`chilik tuzumi bo`lib, qabila yo`lboshchilari xarbiy ishda alohida jasorat ko`rsatgan kishilardan saylab qo`yilgan. Rim-gallar bilan yaqin qo`sni chilik munosabatlarida bo`lgan franklarning tashqi ko`rinishi ham boshqa german qabilalaridan ancha farqlangan. Franklar gotlar va longabardlar kabi hayvon terisidan emas, matodan kiyim bosh kiyishgan va soch-soqollarini olib yurishgan. Ularda faqat qirol oilasiga mansublar uzun soch bilan yurishlari mumkin bo`lgan.

G`arbiy Rim imperiyasining inqirozidan keyin franklarga qo`sni bo`lgan Galliyada Rim noibi Edigey mustaqil knyazlik tuzadi. Xuddi shu davrdan franklarning Galliyaga hujumi yanada kuchayadi. Ularga frank qabilalaridan biri, merovinglar sardori Xlodvig boshchilik qiladi. Uddaburon va shavqasiz Xlodvig tez orada o`z raqiblarini engib, barcha frank qabilalari ustidan hukmronligini o`rnatdi. Edigeyning vorisi Siagriy qo`sni 486 yil Suasson shahri yaqinidagi jangda mag'lub etgan Xlodvig Franklar davlatiga asos solgan va ular tuzgan davlat dastlab sulolalar nomi bilan atala boshlagan. X asrdan Parij atrofidagi viloyat de Frans davlati nomiga asos bo`ldi va u Fransiya, deb ataldi.

Rim cherkovi uning sodiq ittifoqchisi bo`lishi mumkinligini anglagan Xlodvig varvar qabilalari yo`lboshchilari ichida birinchi bo`lib xristianlikni qabul qildi (Rimda). Uning ketidan asta-sekinlik bilan boshqa franklar ham xristianlikka o`tadi. Franklarning ko`pchiligi Xlodvigning bu qarorini yoqlamagan, ammo ular o`z qirollaridan qo`rqanlar. Rimliklar bu ishdan, ya`ni Xlodvigning xristianlikni qabul qilishidan xursand bo`lganlar. Ulardan biri “sizning yangi dininggiz, bu bizning g’alabamiz!” – deb bejiz yozmagan edi.

Xlodvig xristianlik ta’limotini tushungan deyish mushkul, u namunali xristian bo`limgani<sup>3</sup> ham ma’lum. Ammo amalga oshirilgan tadbir dono ekanligi shubxasiz: shu paytdan franklar va rimliklar asta-sekin yaqinlashib yagona xalqqa aylana boshlaydi. Endi ularni din ajratmas, xristianlik bilan tanishuv esa franklarga Rim madaniyatining turli sohalarini o`zlashtirish imkonini berdi.

Xlodvigning xristianlikka o`tishi esa unga aholi orasida ta’siri kuchli gal yepiskopligi qo`llashini ta’minlaydi. Xristianlikning “har qanday hokimiyat xudodan” deb uqtirishi Xlodvig va uning vorislari rejalariga mos keladi, qadimgi germanlar diniy e’tiqodlarida esa bu kabi fikrlar bo`limgan.

Franklar istilo qilgan hududlarda rimlik quldorlarning hashamatli saroylari-yu ulkan yer-mulkleri saqlanib qolgan. Mahalliy aholining asosiy qismini rim-gallar tashkil qilgan edilar. Franklar qullikni bekor qilmagan bo`lib, mamlakatda asosiy ishchi kuchi qullar va kolonlar bo`lib qolaverган. Dastlabki paytda franklar gallardan alohida yashaganlar. Luara daryosidan shimoldagi german qabilalari esa yana uzoq yillar urug’ jamoa bo`lib yashashda davom etadi. Mamlakat janubidagi gallar esa son jihatidan german qabilalari: burgundlar, vestgotlardan keyinchalik hukmronlikni o`rnatgan franklardan ham ko`proq bo`lgan.

Davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xlodvigning vorislari boshqaruvi davrida qirollar alohida xizmatlari evaziga jangchilar va yaqin hamkorlariga yirik yer mulklar – benifitsiyalar taqdim etganlar. Shu tariqa qirol va uning jangchilari, ruhoniylar, qirol saroyiga yaqin rim-gal zodagonlari, quldorlardan yangi yirik yer egalari – feodallar toifasi vujudga kelgan. Ularning yerlarida VI asr oxiridan qullar, kolonlardan tashqari o`z erkinligini yo`qotgan franklar ham ishlaganlar. Natijada yangi jamiyatning asosiy toifalari: feodallar va qaram dehqonlar tashkil topdi.

---

<sup>3</sup> Томсинов В.А. История государства и права зарубежных стран (Древность и Средние века). – Москва: Зеркало, 2001. –С. 52 – 63.

Shimoliy Galliyada tashkil topgan frank qirolligi Xlodvigning vorislari davrida 534 yili Burgundiyani va 536 yili Provansni ishg'ol qildilar. Franklar germanlarning tyuring, alemann, bavar qabilalarini ham bo`ysundirib, ularni har yili o`lpox to`lashga majbur qiladilar.

Qirollar hokimiyati kuchayib borishi bilan muhim qonunlar, qarorlar qabul qilish uchun xalq yig'inlarini chaqirmay qo`ydilar. Qirol tomonidan qabul qilingan yangi qonunlar esa xususiy mulkchilik va tengsizlikni mustahkamlab borgan. Qirol hokimiyatning barcha sohalarini o`z qo`liga olib, davlatni o`zining shaxsiy mulki sifatida boshqargan. Ilgari jamoa mulki hisoblangan ekinzorlarni va boshqa yerlarni xohlagan kishisiga in'om etar, davlat xazinasidagi mablag'larni ham istaganicha sarflar edi. Yirik yer egalari – feodallar toifasi esa qirol hokimiyatining tayanchiga aylangan. Davlat qirol boshchiligidagi yirik mulk egalarining yangi yerlarni istilo qilishini qo`llab-quvvatlar edi.

Franklarda Xlodvig davridayoq mamlakat viloyatlarga bo`linib, ularni qirol tayinlagan graflar boshqara boshlagan. U o`z hududlarini qirol nomidan boshqarib, aholidan soliqlarni yig'ib olish, xarbiy qo`shinga boshchilik qilish, sud qilish kabi ishlarni boshqargan. Sudning qarori bilan yig'ilgan jarimalarning 1/3 qismi qirol xazinasiga yuborilar edi. Franklar soliq tartiblarini rimliklardan o`zlashtirib olganlar<sup>4</sup>.

Urug' jamoachilik an'analari esa har yili o`tkaziladigan xarbiy ko`rik (mart maydoni) tarzida va mahalliy boshqaruvida saqlanib qoldi. Mahalliy boshqaruvi asosini erkin franklarning yuzlik yig'inlari tashkil etib, uning boshlig'i, yuzboshisi – tungin, deb atalgan.

VI asr oxiridan franklarning chek yerlari dehqon oilasining sotish yoki in'om etishi mumkin bo`lgan mulki – allodga aylandi. Qirollar tomonidan chiqarilgan yangi qonunlar yerni xususiy mulkka aylanishini tezlashtiradi. Qirol Xilperik (561 – 584) davrida yangi qonun chiqarilib u o`g'il voris bo`lmasa yerni

---

<sup>4</sup> Курбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўкув –методик қўлланма. – Тошкент: Ўқутувчи, 1991. –Б. 36.

avvalgidek jamoaga emas, marhumning qizi, singlisi yoki ukasiga o`tishi huquqini tasdiqladi<sup>5</sup>.

Yerning xususiy mulkka aylanishi, mulkiy tabaqalashtirishni tezlashtirib, yirik yer egaligining o`sishiga olib keladi. Galliyadagi Rim imperatorligiga tegishli yerlarni o`z mulkiga aylantirgan frank qirollari, ularning bir qismini o`z yaqinlari va cherkovga ham in'om etganlar.

Xlodvig buyrug'iga binoan yozilgan franklarning an'anaviy odatlari to`plami Yevropadagi eng mashhur odat huquqlari yodgorligiga aylandi. U “Sali haqiqati”, deb nomlangan bo`lib, to`plamning nomi unga faqat franklarning Sali qabilasi qonunlari kiritilganligini anglatadi. Qirolning maqsadiga ko`ra, barcha franklar qirol qo`llagan “Sali haqiqati” bo`yicha ijtimoiy hayot tarziga ko`nikma xosil qilishlari kerak edi. Bu qoidalarda biror narsa izoh talab bo`lsa, uning uchun qirolga murojat qilinishi, u esa o`z manfaatlari yuzasidan javob berishi mo`ljallangan. Ulardan tashqari qirol “Sali haqiqati”ga qadimgi odatlardan o`ziga foyda keltiradiganlarini kiritib qo`ygan. Natijada qadimgi odatlardan qirolni qoniqtirmaganlari unutilib, foydalilari to`plamda batafsil yoritilgan.

Antik jamiyatning inqirozi ijtimoiy ziddiyatlarini kuchayishiga ham ta'sir etdi. Huddi shunday norozilik alomatlarini franklar Galliyani egallagandan so`ng Frank davlatida ham ko`rish mumkin bo`lib qoldi. Galliya ayniqsa, uning janubiy hududida feodallahuv jarayoni shimolga qaraganda tez rivojlanib bordi. Galliyarim va german aholisining aralashuvi natijasida huquqiy va etnik tafovutlar qolmadi. Xlodvig vorislari davrida xarbiy xizmat qilish qirollikning barcha fuqarolari , shuningdek, galliya-rimliklar uchun ham majburiy qilib qo`yilgandi. Boshqa bir tarafdan Frank qirollari germanlardan ham qadimgi rim davridagi soliqlarni undirib olishni rejalashtirganlar. Mana shu siyosat tufayli Galliyadagi qirollikda bir necha bor qo`zg'olon ko`tarilgan.

---

<sup>5</sup> Хрестоматия памятников феодального государства и права стран Европы. – Москва: Госюриздан, 1961. –С. 65.

Dehqonlarning mayda yer egaligi yemirilib, tushkunlikka uchragan bir vaqtda, katta dunyoviy va cherkov yer egaligi avj olgan. Dunyoviy feodallar ham cherkov, monastir yer egalari ham o`z yerlarini qiroldan olgan yerlaridan tashqari, asosan erkin dehqonlarning yerlari hisobiga kengaytirganlar.

Karolinglar davlatida feodal munosabatlarning rivojlanish jarayonini erkin frank dehqonining krepostnoy dehqonga aylantirish usullarini – prekariy munosabatlar, kommendatsiya, benefitsiyning rivojlanishi asosida ko`rib chiqish lozim. Ularning eng ko`p tarqalgan formalaridan biri prekariy<sup>6</sup> munosabatlaridir.

Dehqonlarni asoratga solishda qo`llanadigan “prekariy” tartibi merovinglar davrida boshlanib, VIII – IX asrlarda juda kuchaygan. Prekariyning asl ma’nosи shundan iborat ediki, iltimosga ko`ra belgilangan yer uchastkasi, katta yer egasi, yersiz yoki kam yerli dehqonga vaqtincha foydalanish uchun (ba’zida bir necha yilga, ba’zida umrbod) shartli ravishda topshiradi. Dehqon bunday yer uchastkasidan foydalanganligi uchun dunyoviy yer egasi foydasiga, ko`pincha cherkovga (yyepiskopga yoki monastirga) obrok to`lashi yoki barshchina majburiyatini o`tashi shart edi. Bunday oldi – berdi natijasida prekariychi erkin yer egaligi huquqini yo`qotib, dunyoviy magnatning yoki cherkov katta yer egasining qaramligiga tushib qolgan. Prekariy olgan dehqonning o`z yeri esa prekariyga aylanib, asta-sekin cherkov yirik yer egaligining mulkiga qo`shilib ketardi.

Dehqonlar prekariy bitimi natijasida, oldinroq yoki bitim tuzilgan paytdan boshlab, yerga egalik qilishdan mahrum bo`ladilar va xo`jayinga yer bilangina bog’liq bo`lib qolmay, ko`pincha o`zlarining shaxsiy erkinliklarini ham yo`qotadilar. Foydalanish uchun cherkovdan prekariy olgan dehqonlarning ahvoli yerga bog’langan va xo`jayinga biror xil majburiyatni ado etadigan rimlik kolonlar, litlar va qullar ahvoliga o`hshab qolardi. Ba’zi bir prekariy yorliqlari allod egalarini, prekariy qaramligi munosabatiga o`tishga majbur qilgan sabablarni tushuntirish imkoniyatini ham berardi. Xujjalarda qanday prekariy turlari

---

<sup>6</sup> Prekariy – ikki tomonidan tuzilgan bitim haqidagi hujjat. Agar prekariy so’rovchi tomonidan yozilgan bo’lsa, prokariy deb ataladi, agar prekariy beruvchi yer egasi tomonidan yozilgan bo’lsa prestariy deb ataladi.

bo`lganligiga ham ahamiyat berish zarurdir. Bir necha prekariy turlari mavjud bo`lib: pojalovanniy – qachonki erkin dehqon o`z yeridan mahrum bo`lgach, yirik dunyoviy yoki cherkov yer egasiga shartli foydalanish uchun unga yer berishini so`rab murojaat qiladi. Quyida keltirilgan hujjatda aniq izohlanadiki, prekariychi shu paytdayoq qaram kishiga – kolonga aylanadi. “Mening doimiy xo`jayinim falonchiga. Doimiy muhtojlik va ish topish imkoniyatiga ega bo`lmaqanim tufayli, sizning qudratli diyonatingizga murojaat qilaman, falonchiga ishslash uchun pomestengizdan prekariy sifatida yer uchastkasi bersangiz. Sizning qudratingiz mening iltimosimni bajara oladi... Ushbu prekariy yorlig’i bilan va’da qilamanki, ajratilgan yer uchun hech qachon, hech qanday qarshilik ko`rsatishga harakat qilmayman va zarar keltirmayman, balki sizga har tomonlama foyda keltiraman. Kolonlarga xos desyatina va boshqa soliqlarni har yili to`lash majburiyatini olaman...”<sup>7</sup>.

Qaytarib beriladigan (qaytariladigan prekariy) prekariyda qashshoqlikka tushib qolgan erkin dehqon o`zining yerini cherkov yoki yirik yer egasi ihtiyyoriga bergen va uni prekariychi huquqida qaytarib olgan. Buni prestarnaya yorlig’i to`liq isbotlaydi. Bu hujjatda yer yoki mulk kimgadir foydalanish uchun beriladi. Bu masalada yer egasi “ixtiyoriy bitim” asosida o`z yer uchastkasini cherkov yoki monastirga topshirgan va uni endi faqat hayotiy foydalanish huquqiga asoslanib qaytarib olishi mumkin edi.

Prekariy pirovardida erkin dehqonning yerga egalik huquqini yoqotib feodal yer egalining o`sishiga olib keladi. Hujjatlarning quyida keltirilgan paragraflarida kapitulyariyadan parchalar keltiriladi. Bu hujjatlar shuning bilan xarakterlikni, bunda dunyoviy va cherkov yirik yer egalari mayda erkin yer egalarining yeri hisobiga o`zlarining mulklarini kengaytirishdagi majbur qilish usullari aniq ko`rinadi. Erkin yer egalari o`z yerlarini va shaxsiy erkinliklarini yo`qotib, qaram dehqonlarga aylanganlar. F. Engels bunday ahvolni shunday ta’riflaydi: “Urushlar va talonchilik orqasida xonavayron bo`lgan frank dehqonlari

---

<sup>7</sup> Грацианский А., Сказкин С. Хрестоматия по истории средних веков. 1-том. – М., 1953. – С. 148-149.

yangidan vujudga kelgan zodagonlardan yoki cherkovdan himoya izlashga majbur edilar, chunki qirol hokimiyati juda ojiz bo`lgani uchun ularni himoya qila olmas edi, lekin dehqonlarga bunday himoya juda qimmatga tushar edi. Ular, ilgarigi gall dehqonlari singari, o`zlariga qarashli yer uchastkasiga egalik qilish huquqini homiylariga berib, keyin bu uchastkani har xil va o`zgarib turadigan shartlar bilan, lekin majburiyatlarni bajarish va obrok to`lash evaziga, homiylardan omonat qaytarib olishlari lozim edi; ular shu tariqa qaramlikka tushganlaridan keyin, o`z shaxsiy erkinliklarini ham oz – ozidan yo`qota borar edilar, bir necha avloddan keyin ularning ko`pchiligi krepostnoylarga aylanishar edilar”<sup>8</sup>.

Ayrim hujjatlar qaram frank dehqonlarning shunday turini izohlaydiki, bular kommendatsiya<sup>9</sup> qaramligidagi dehqonlaridir. Kommendatsiya muayyan shartlar bilan “homiy” foydasiga turli hizmatlarni bajarish va o`z yerini “homiy”ga berib, shartli ushlab turuvchi shartida uni qaytarib olish, dehqonlarning feodallar “homiy”ligi ostiga o`tish formalaridan biri bo`lib, bu tartib VII – IX asrlardan boshlab Yevropada keng yoyilgan edi. Ko`pincha kuch bilan ana shunday qilishga majbur etiladigan dehqonlar uchun shaxsiy erkinlikni yo`qotish – bir tomondan, dehqonlarni asoratga tushishiga, ikkinchi tomondan, esa feodal munosabatlarning mustahkamlanishiga imkon bergen.

Kommendatsiya tartibining dehqonlarni qanchalik asoratga tushirganini quyidagi “o`zini birovga homiylikka topshiruvchi haqidagi” hujjat aniq isbotlaydi: “Ulug’ xo`jayin falonchi men falonchidan. Hammaga yahshi ma’lumki, mening yeyishga ovqatim, kiyishga kiyimim yo`q. Shuning uchun men sizdan, o`zingizning homiyligingizga olishga rozilik berishingizni so`radim; men shu shart bilan shunday qildimki, siz, meni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlab yordam bersangiz, bunga yarasha men, sizga hizmat qilib, sizning gapingizdan chiqmayman, sizning hukmronligingizdan va sizning homiyligingizdan chiqish huquqiga ega bo`lmayman, hayotimning oxirigacha sizning hukmronligingiz va

---

<sup>8</sup> Курбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи... –Б. 36.

<sup>9</sup> Komendatsiya – lotincha “coeao” so’zidan olingan bo’lib “homiy”, degan ma’noni anglatadi.

muhofazangizda qolaman”. Kommendatsiya ham pirovardida prekariy olib kelgan natijalarga olib keladi – erkin dehqonlar qaram kishilarga aylanadilar<sup>10</sup>.

Hujatlarda avvalgi erkin jamoa dehqonlarni krepostnoy dehqonlarga aylantirishning turli usullari ham izohlanadi. Dehqonlarning yerlari feodallar qo`liga o`tib, ular o`z mulklaridan mahrum bo`lib, pirovardida shaxsiy mustaqilliklarini ham yo`qotganlar. Ayrim hujatlarda krepostnoy dehqonlarning ahvoli ham tasvirlangan. Feodallar dehqonlarga o`zlarining “yerlari, yaylovlar va suvlar” singari mulk sifatida qaraydilar. Yyepiskop, abbat va boshqa ruhoniy yirik yer egalari bu dehqonlarni o`zaro almashtirishlari, ularni bir-biriga berishlari, bolalarini bo`lib olishlari mumkin bo`lgan.

Kapitulyariyadan kelirilgan parchalarni ham har tomonlama chuqur tahlil qilish zarur. Ruhoniy va dunyoviy yirik yer egalarining dehqonlarni o`zlariga bo`ysundirishda qanday yo`l va usullardan foydalanganliklari aniq va har tomonlama izohlab berish lozim. Keltirilgan manbalarga asoslanib, erkin jamoachilarni qaramlikka olishda majbur qilish vositasidan foydalanganligini ko`rsatish zarur. Ba’zi hujjatlar dehqonlarni iqtisodiy qaramlikda saqlashdagi davlatning rolini ko`satadi. Frank davlatining feodal harakterini aniq tasavvur qilish uchun immunitet muammolarini ham o`rganish zarur.

Immunitet faqat ayrim yer egalariga beriladigan siyosiy huquqlar (soliq solish, sud qilish, xarbiy huquqlar) yig’indisigina bo`lmay, balki hadya qilingan hududlarga egalik qilish hamdir. Immunitet g’ayriiqtisodiy yo`l bilan majbur qilishda va dehqonlarni krepostnoylashtirishda o`ziga xos muhim vosita hamdir. Immunitet feodallar siyosiy mustaqilligining kuchayishiga, karolinglar imperiyasining bora – bora siyosiy jihatdan barham topishi uchun zamin tayyorlashga yordam berdi. Qirol Pipinning Muqaddas Pyotr va Pavelning Vorms cherkoviga yorlig’i hujjati immunitet haqidagi fikrimizni to`liq tasdiqlaydi. “Vorms yeiskopi, qirol Dagobert tomonidan cherkovga ehson qilingan imtiyozlar

---

<sup>10</sup> Курбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи... –Б. 60.

haqidagi ma'lumotlarni bizga etkazdi. Bunda hech qanday davlatning amaldor shaxslari na sud masalalarini eshitishga, na sud jarimalarini undirish uchun cherkov hududiga kirmasliklari (davlatning amaldor shaxslari), ruhoniylardan xarbiy xizmat o'tashni talab qilmasliklari lozim. Qachonki, qirof foydasi uchun xarbiy yurishga borish zaruriyati tug'ilsa, ruhoniylar o'zlarining yyepiskoplari bilan xarbiy yurishda ishtirok etishlari lozim, ular ruhoniylardan hech qanday soliq va majburiyatlar talab qilmasliklari lozim, graflar va boshqa sud amaldorligidagi shaxslarning ruhoniylarga nisbatan hamma hukmronliklarini qirof Dagobert xudo, muqaddas Pyotr va Pavelga topshirdi. Biz ham buyruq beramizki, davlatning amaldor shaxslari Vorms cherkovining na hamma mol-mulkiga, na pomestesiga zarar keltirmasliklari, uning pomestesida yashovchi na ruhoniylardan, na abbatlardan hech qanday to`lov va majburiyat talab qilmasliklari lozim. Cherkov va uning yyepiskopi buzilmas immunitet huquqiga ko`ra, ularga topshirilgan sud jarimalaridan va hamma majburiyatlardan foydalanishlari lozim va bizning biror grafimiz yoki vakilimiz muqaddas Pyotr va Pavel cherkovi ruhoniylari ustidan hech qanday hukmronlikka ega bo`lmasliklari kerak. Cherkovning hamma mol-mulklariga cherkov va uning yepiskoplari hamda uning amaldor shaxslari tinchgina egalik qilsinlar, ular cherkov ruhoniylariga hech qanday boj to`lamasliklari, majburiyatlarni o'tamasliklari va ularga biror zarar keltirmasliklari lozim”<sup>11</sup>. Bu davrda xarbiy benefitsiyalar tizimi ham avj olib bordi. Benefitsiy yer in'om qilish bo`lib, VIII asrning birinchi yarmida franklar davlatida keng tarqalgan. Benefitsiy formasida beriladigan yer uchastkasi undagi qaram dehqonlar bilan birga muayyan hizmatni, ko`pincha xarbiy xizmatni bajarish sharti bilan oluvchining (benefitsariyning) umrbod foydalanishiga o'tar edi. In'om etuvchi yoki benefitsariy o`z majburiyatini bajarmagan yoki ho`jalikni o`z holiga tashlab qo`ygan taqdirda benefitsiy mulkdorga yoki uning vorisiga qaytarilishi kerak bo`lar edi va benefitsiy munosabatlarini tiklash uchun qayta in'om etish talab qilinar edi. Faqat qirof hokimiyatigina emas, balki, cherkov, shuningdek, yirik

---

<sup>11</sup> Социальная история средневековья. 1-том. – Москва. 1927. –С. 196.

magnatlar ham yerlarini benefitsiy tariqasida taqsimlaganlar. Benefitsiy tizimi feodallar sinfining shakllanishiga, dehqonlar ommasining asoratga tushib qolishiga, vassallik munosabatlari va feodal ierarxiyasining rivojlanishiga imkon berib, keyinchalik benefitsiyalar umrbodlikdan meros bo`lib o`tadigan lenga (feod) aylandi. Benefitsiy tartibi Buyuk Karl davrida juda kuchaydi. Bu davrga kelib erkin dehqonlarning zaiflashuvi va tushkunlikka uchrashi natijasida dehqonlar xarbiy xizmatni o`tashga tobora kamroq chaqirildi. Benefitsariylarning ko`pchiligi yirik yer egalariga – magnatlarga qaram edilar. Magnatlar urushga odatda sodiq kishilaridan butun – butun otryadlar olib kelar edilar. Ayni zamonda vassallik ham keng joriy etilib bordi. Nisbatan yirik bo`lmagan mulk egasi yirik yer egasidan o`zining qaram bo`lganligiga majburan iqror bo`lib, uning “vassalla”ga aylangan. Homiylik qilgan katta yer egasi esa, uning “senyori” bo`lgan. Agar avval, bunday vassalik tartibi butunlay iqtisodiy sharoit bilan bog’liq bo`lib, xususiy huquq akti bo`lgan bo`lsa, zamon o`tishi bilan IX asrning ikkinchi yarmidanoq vassallik zaruriy bo`lgan va qirol buyrug’i har bir odamning albatta o`zining seniori bo`lishi qayd qilingan. IX asrda qirol amaldori huzurida turgan kishilarning kim ekanligini aniqlash kerak bo`lsa, odatda, uning nomi va seniori kim, deb so`raganlar. Demak, vassallik munosabatlari shunchalik zarur bo`lgan. Umuman, VIII – IX asrlarda erkin frank dehqonining krepostnoyga aylanishi va yirik yer egaligining o’sish jarayoni tez sur’atlar bilan borgan. Sobiq erkin dehqonlarning yersizlanishi va yer egaligi munosabatlarida haqiqiy o`zgarishlaining ommaviy ravishda yuz bergenligini tasdiqlovchi turli hil hujjatlar ko`p miqdorda bizgacha etib kelgan. erkin dehqon qashshoqlashgan va yarim qaram krepostnoy dehqonga aylanib, yirik yer egasining yerida yashagan. Cherkov yer egaligining o’sishi, ayniqsa, tez sur’atlar bilan borgan. Cherkov namoyondalari turli – tuman vositalardan o`z boyliklarini ko`paytirish uchun foydalanganlar. Mayda yer egasiga nisbatan ko`p vaqtda ular to`g’ridan-to`g’ri zo`rlik va qo`rqitish vositalarini ishlatganlar. U dunyodagi xudo azoblarini ilgari surib, dehqonning qo`rquvidan foydalanganlar. Qachondir kimningdir tomonidan biror yerni cherkovga bergenligi haqida yorliqlar

tuzganlar. Shunga o`hshagan hiyla-nayranglar bilan cherkov namoyondalari juda katta yer-mulkarni pul boyliklarini qo`lga kiritganlar. R. Qurbongalieva o`zining “O`rta asrlar tarixi. O`quv – metodik qo`llanma” kitobida shunday voqealar haqida xujjatdan namuna keltirgan: “Prekariy. Qaytarib berilgan prekariy. Sen-Gallen monastrining 838 yilgi yorlig’idan “Muqaddas Galla monastrining shavqatli abbat Bernvik. Bizning birodarlarimiz va bizning Puaton fogtining roziligi bilan Volvinga, biz, hadya sifatida keltirgan joyni prekariy sifatida qaytarib berishga qaror qildik, nomlari keltirilgan joylar (etti nom – Veynfelden va boshqalar), bu joylarda nimaiki bo`lsa: uylar, qurilishlar, ko`llar, o`rmonlar, jonli va jonsiz hamma narsalar, ishlangan va ishlanmagan yerlar, uning hadya yorlig’ida nimaiki bo`lsa hammasini, ya’ni mulkclarini shunday shart bilan olsinki, har yili chinish – ikki denariy to`lasin. Uning qonuniy merosxo`ri ham agar xudodan uni olish imkoniga ega bo`lsa, huddi shunday qilinsin”<sup>12</sup>.

Prekariy haqida tarixiy xujjatlarda shunday yozuvlar uchraydi: “Mening doimiy xo`jaynim falonchiga. Doimiy muhtojlik, ish haqi toppish ikoniyatiga ega bo`limganim tufayli sizning qudratli diyonatingizga murojat qilaman; falonchiga ishslash uchun pomestengizdan prekariy sifatida yer uchastkasi bersangiz. Sizning qudratingiz mening iltimosimni bajara oladi... Ushbu prekariy yorlig’i bilan va’da qilamanki, ajratilgan yer uchun hech qachon hech qanday qarshilik ko`rsatishga harakat qilinmaydi va zarar keltirilmaydi, balki hamma tomonlama sizga foyda keltiriladi. Kolonlarga xos desyatina va boshqa soliqlarni har yili to`lash majburiyatini olaman.

Agar men, ushbu prekariy yorlig’ining shartlarini esdan chiqazib, va’da qilinganlardan nimanidir buzishga jur’at etsam... siz ko`rsatilgan yerdan meni haydab yuborishga to`la huquqqa egasiz va yangidan uni o`z istaganingizcha boshqarishingiz mumkin”<sup>13</sup>. Bu prekariy yorliqlari Ispaniyada tuzilib Vestgo to`plamiga kiritilgan, lekin unda yoritilgan jarayonlar frank davlati uchun ham

---

<sup>12</sup> Курбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув –методик кўлланма. – Тошкент: Ўқутувчи, 1991. –Б. 26.

<sup>13</sup> Социальная история средневековья... –В. 200.

ahamiyatlidir. Yana shunday Prekariy yorlig'i VIII asr oxirlariga oid Reyhenau formulasi hisoblanadi: "Muhtaram xo`jayin va falonchi monastir abbat... ma'lumki, hozir marhum falonchi, falon joyda nimaga ega bo`lsa, hammasi falon monastrga, falon muqaddas cherkovga hadya qildi va undan keyin uning o'g'illari o`lguncha unga egalik qilib, qancha bo`lsa shuncha chinish to`lashini so`radi. Hozirgi paytda uning o`g'li falonchi iltimos qilib murojat qiladiki, belgilangan yer uning o`limidan so`ng, uning o`g'illariga umrbod foydalanishga topshirilsin. Bunga bir shart bilan roziligidizni bildiramizki, belgilangan falonchi har yili huddi o`sha katta hajmdagi tegishli chinishni to`lab turishi lozim".

Yorliqlardan yana biri "taqdim qilish yorlig'i", deb nomlanib yorliqning nomi "prasto" (taqdim qilmoq yoki topshirmoq) degan lotincha so`zdan olingan. Bu hujjatda yer yoki mulk kimgadir foydalanish uchun beriladi. Bu masalada yer egasi "ihtiyoriy bitim" asosida o`zining yer uchastkasini monastrga topshiradi va uni endi faqat hayotiy foydalanish huquqiga asoslanib qaytarib oladi: "Men abbat falonchi falonchi ayolga, ma'lumki, sen falon okrugdag'i o`zingning mulkingni yaqinda muqaddas Mariyaning monastriga topshirding va buning uchun bizdan va yuqorida nomi keltirilga monastrdan (senga) prekariy berishini so`rading, mana shu yorliq bilan senga topshirdiki, sen hozircha tirikligingda shu yerga egalik qilib, foydalanib ushlab turish huquqiga ega bo`lgan holda, hech bir holatda uni o`zgaga berish huquqiga ega bo`lmay, agar buni qilishga jazm qilsang shu zamoniyiq yer tortib olinadi. Shunday bo`lgandagina yorliq mustahkam bo`lishligi uchun biz qo`limizni qo`yamiz". Shu kabi boshqa hujjatda: "Mening xo`jayinim falonchiga va uning xotini falonchiga men falonchidan. Men gunoh bilan o`rab olinganligim uchun sizning buyumlaringizga o`g'irlik qildim, erkinligimni to`liq sizga bo`ysundirib, qullikka solib, sizni rozi qilishdan o`zga choram yo`q. Mana men hech qanday majbur qilishlarsiz va buyruqlarsiz to`liq xolis holda o`z hohishim bilan o`zimni qullikka topshirib, sizga bo`ysunaman. Men sizdan, o`zim belgilagan o`shancha solid haqni olishim kerak, siz esa hozirdan boshlab, o`zingizning qo`l ostingizdagi qullar singari keragicha, mening ustidan ham to`liq hukmronlik

o`rnatishingiz mumkin. Agar men o`zim, yoki mening qarindoshlarimdan yoki begonalardan birontasi mening xohishim bilan bo`lgan bu sotilishimga qarshilik ko`rsatishga qaror qilsa, sizga va hazinangizga shuncha solid “jarima” to`lasin, bu sotilish esa o`zgarishsiz qolsin”<sup>14</sup>.

Otalari prekariy yo`rlig`ini olgan bolalar o`z otasi o`tib ketganidan so`ng ham o`sha davrda tuzilgan xujjatga bo`ysunishi lozim edi: “Bizning xo`jayinimiz falonchiga va xo`jayinimizning xotini falonchiga. Ma'lumki, bizga qarashli bu yerni bizning otamiz egallab, sizga prekariy yorlig`ini yozgan, buni biz ham takrorlaymiz, qo`limiz bilan tasdiqlaymiz va itoatkorona so`raymizki, sizning diyonatingiz shu yerni bizga egallah uchun rozilik bersa. Bu yerni egallahimiz esa, sizga ham, sizning merosxo`rlaringizga ham hech qanday zarar keltirmaydi, biz bu prekariy yorlig`ini sizga topshirib, va'da beramizki, agar qachondir bir vaqt, bu yorliqdagi shartga hilof ravishda, sizning tomondan aytilgan hamma hizmathlaringizni bajara olmasak, yoki sizning nomingizdan, boshqaruvchingizning buyruqlarini, yoki bizning egallab turgan yer sizning mulkingiz emas desak, u holda vijdonsiz bosqinchilar kabi qonunning hamma qattiq talablari bo`yicha sizga jarima to`lashga majbur bo`lamiz va siz hech qanday sudga murojat qilmay, bizni u joydan haydab chiqarishda to`liq huquqqa ega bo`lasiz. Birovning mulki yoki erkinligi qonunsiz holda kuchli shaxslar tomonidan tortib olinganligi haqida buyruqlani ko`rish ham mumkin: “Kelgusida va hozirda bizga sodiq bo`lgan kishilarning hammasiga ma'lum qilamizki, falon okrugning falon qishlog`ida yashovchilar falonchi graf ularning erkinliklarini qonunsiz tortib olganliklari haqida shikoyat qilishdi. Biz esa qidirib, aniqlab ularni qonunsiz qullik asoratidan bartaraf qilish va avvalgi erkin holatiga qaytarish uchun o`zimizning sodiq vakillarimiz falonchi falonchilarga haqiqatni topib, ma'lumotlarni aniqlab va bu haqda habar berishi uchun buyruq berdik. Tekshirilib habar qilingach, aytilgan odamlar va ularning qarindoshlari, ularning avlodlari, shunday yo`l bilan qonunsiz

---

<sup>14</sup> Грацианский Н.П. Западная Европа в средние века. – Москва, 1926. –Б. 35.

qullikka solinganlar kelgusida va hozirgi kunda shu bizning muruvvatimiz bilan erkinlikka ega bo`lsinlar va o`zlarining erkinlik holatlariga bizning sadoqatli biron kishimizdan hech qanday zarar sezmasinlar, degan maqsadda bizning hukumatimiz ular haqida farmon chiqaradi”<sup>15</sup>.

Hujjatlar orasida majburiyatlar haqidagi xujjatlar ko`p uchraydi: “Mening birodar xo`jaynim falonchiga. Mening juda zarur iltimosimni rad qilmay shuncha solid pul qarz bering. Men esa shuncha yil mobaynida qachon senga kerak bo`lsa, haftada shuncha kun sening buyrug’ing bilan ishlab berish haqidagi majburiyatni tuzishni va tasdiqlashni sendan so`radim. Agar men buni bajarmasam, yoki e’tiborsizlik va dangasalik qilsam yoki muddat o`tguncha o`z ahvolimga o`zgartirsam, va’da beramanki, shu majburiyat kuchi bilan meni qaysi joyda topsang, sudning ishtirokisiz, sening buyrug’ingni men ikki barobar qoniqtiraman; qachon belgilangan muddat tugasa, men qarzni qaytaraman, mening majburiyatimni sen menga qaytarib berasan”<sup>16</sup>. Faqatgina qaramlik emas, balki qullik yorliqlar mavjud bo`lgan. “Mening birodar xo`jaynim falonchiga. Hammaga ma’lumki, juda qashshoqlik va og’ir tashvishlar tufayli kiyinishga kiyimim yoq, qanday kun kechirishni bilmayman... Shuning uchun mening iltimosimni siz buyuk zot, qaytarmadingiz, o`zingizning pulingizdan shuncha solid berdingiz. Mening bu solidlarni to`lashga hech narsam yoq. Shuning uchun men sizga o`zimning shaxsiy erkinligimni qullikka topshirib tasdiqlashingizni so`rayman.

Hozirdan boshlaboq siz o`zingizning haqiqiy qullaringiz ustidan qanday keng vakolatga ega bo`lsangiz, mening ustidan ham shunday hukm qilishga to`la huquqlisiz, shaxsan: sotish, almashtirish, jazolash va hokazo. Agar mening aytganim bo`lmasa, men yoki mening avlodlarimdan birontasi yoki kimdir boshqa biror kishi bunga qarshi chiqsa sizning xazinangizga shuncha utsiy jarima to`lasin,

---

<sup>15</sup> Хрестоматия памятников феодального государства и права... –С. 50.

<sup>16</sup> Грацианский Н.П. Западная Европа в средние века... –С. 3.

bu qullik esa o`zgarishsiz qolsin. Kapitulyarlar VIII – IX asrlardagi frank qirollarining buyruq va farmonlaridir. Ular franklar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ko`p tomonlariga, qisman feodallar tomonidan dehqonlarning espluatatsiya qilinishi masalalariga ham tegishlidir. Masalan, 776 yilga oid kapitulyariyasidan birida shunday yozilgan: “Birinchidan, biz hammamiz qaror qildik, ba’zi kishilar tomonidan o`zini, xotinini, o`g’illari va qizlarini qullikka beruvchi majburiyatli yorliqlar qaerdan topilsa, yo`qotilsin va ular ilgarigidek erkin bo`lishsin”.

XI asr boshiga tegishli Muqaddas Andreyning Venskiy monastri kapitulyariyasidan garov yorlig’i mavjud: “Iso nomidan men, Aregiya va mening o`g’lim Amalfred bilan mening qizlarim Aalborga va Kassoendalar bilan, Rotbad ismli kimsa va uning hotini Aalburdi va uning qizlari va o`g’illari nomiga, Arboratda joylashgan bizning qonuniy mulkimiz tokzorni yer uchastkasi bilan 3 modiy donga garovga beramiz, biz sizga 3 modiy donni to`lagunga qadar, siz bu tokzorga egalik qilasiz. Men Rotbard, mening xotinim va mening o`g’illarim va qizlarim, siz o`z xohishingiz bilan mulkingizni garovga qoldirganligingiz uchun, boshqa 5 modiyni rahmdillik sharti yuzasidan kechamiz. 3 modiy donni, muqaddas Yuliyan bayramidan hisoblab to`rt yil ichida to`laysiz. Agar to`lamasangiz, biz sizdan 8 modiy va 8 sextariy qilib undirib olamiz”.

803 yil kapitulyariyasidan: “Agar o`zini boshqa birovning hukmronligiga garovga qo`gan erkin kishi kimga bo`lsa ham qandaydir zarar keltirsa, garovga olgan odam keltirilgan zararni qoplamasin yoki sud majlisiga qo`yilgan odamni garovga olganligi uchun bergen qarzi bilan birga erkinlikka qo`yib yuborilsin. Zarar keltitgan kishi erkinlikka chiqqach keltirilgan zararga qarab jarima to`lasin. Agar o`zini garovga qo`yganga qadar erkin ayolga uylangan bo`lsa va o`g’illarga ega bo`lsa, ular erkin bo`lishsin”. 810 - 811 yillardagi kapitulyariydan: “Agar qandaydir erkin kishi boshqa bir kishiga zarar keltirsa, keyin uning uchun to`liq

jarima to`lay olmasa, to`liq jarima to`lagunga qadar o`zini - o`zi qul qilib garovga topshirsin”<sup>17</sup>.

Xulosa qilganda franklarda feodallahuv jarayoni jadallahib bordi. Natijada erkin kishilar bevosita qaramlik girdobiga tushib qoldilar. Yirik yer egalarini manfaatlari xar tomonlama himoya qilib borildi. Buni yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko`rish mumkin. Qirolning olib borgan siyosati va chiqarilgan hujjatlar buning yaqqol misoli hisoblanadi.

### **I.2. “Sali haqiqati”da franklar ijtimoiy tuzumining aks ettirilishi**

“Sali haqiqati” yoki “Sali qonuni”<sup>18</sup> V-VI asrlarda Galliya hududida G’arbiy Yevropadagi eng yirik varvarlar qirolligini tashkil qilgan va franklarning asosiy qabilasi hisoblangan salilarning qadimgi huquqlari, odatlari va qirolning sud qonunlarini ifodalovchi hujjatdir. “Sali haqiqati” varvarlarning eng qadimgi va yagona to`plami emas, undan oldin ham Vestgotlar va Burgundlarning qonunlar to`plami mavjud bo`lgan, lekin “Sali haqiqati” matni singari to`liq emas (Vestgotlar va Burgundlar haqiqatining eng qadimgi nashrlaridan, bizgacha ozroq parchalari saqlangan xolos). Bundan tashqari, Vestgotlar va Burgundlar haqiqatlarida Rim ta’siri ancha kuchlibo`lgan. Chunki, Burgundlar va Vestgotlar sud qonunlari yozilishidan ancha rimliklar orasida yashaganlar. Bu haqiqatlarning har biri alohida qabilalar taraqqiyotidagi xususiyatlarni ifodalab beradi.

Qonunlarning paydo bo`lishi ijtimoiy urug’chilik tuzumidan sinfiy jamiyat va davlatga o`sib o`tishi bilan bog’liqdir. Chunki, sinfiy jamiyat va davlatning paydo bo`lishi, qat’iy tartib qoidalarni ham talab qiladi.

“Sali haqiqati” bizgacha yetib kelgan varvarlar qonunlarining eng keng hajmdagi to`plami bo`lib, o`zining qadimiy mazmuni bilan ajralib turadi. “Sali haqiqati”ning qadimgi matni (bizgacha VIII – IX asrlardagi qo`lyozmalari yetib kelgan) franklar qiroli Xlodvig hukmronligining oxirgi yillari yozilgan bo`lsa

---

<sup>17</sup> Грацианский Н.П. Бургундская древня в X-XII столетиях. – Москва, 1935. –С. 68.

<sup>18</sup> Салическая правда. –Москва, 1950. –С. 15.

kerak. Shuni ham hisobga olish kerakki, “Sali haqiqati” ning asosiy matniga keyinchalik, ya’ni VI – VIII asrlarda qo`shimchalar kiritilgan. “Sali haqiqati” boshqa haqiqatlardan farq qiladi, unda Rim ta’siri kam seziladi: u lotin tilida yozilgan, undagi jarimalar Rim pulida ifodalangan. Qonunning ilk nashrlarida har xil atamalar ko`plab uchraydi.

Fransiya, Germaniya, Amerika reaktsion tarixchilar “Sali haqiqati”ning vujudga kelishini ataylab keyingi davrga surishga harakat qildilar. Masalan, Fyustel de Kulyanj “Sali haqiqati” VII asr o`rtalaridan avval paydo bo`lмаган, deb da’vo qilgan. “История общественного строя древней Франции”<sup>19</sup> nomli kitobida hozirgi zamon german-amerika tarixchisi S. Shteyn esa “Sali haqiqati” IX asrgacha ham bo`lмаган, deb isbot qilishga uringan. Lekin Fyustel de Kulyanj ham, Shteyn ham o`zlarining bu fikrlarini tasdiqlaydigan hech qanday ishonarli hujjat keltira olmaydilar.

“Sali haqiqati” qirol hokimiyatining topshirig’i bilan yozilgan. Hokimiyat hali urug’chilik tuzumi davrida vujudga kelgan odatlarni yo`qotishga qodir emas edi, lekin u qonunda kuchayib borayotgan frank zodagonlarining talablarini ifodalovchi yangi huquqiy normalarni kiritadi. Shuning uchun “Sali haqiqati” boshlang’ich jamoa tuzumidan feodalizmga o`tishdagi davrlarni o`rganishda muhim manba hisoblanadi. Demak, “Sali haqiqati” ilk o`rta asrlarga oid eng qadimgi hujjatlardan biri bo`lib, feodal tuzumining paydo bo`lishi haqida bizga muhim ma’lumotlar beradi. “Sali haqiqati” boy, aniq tarixiy materiallarni o`z ichiga olgan bo`lib, o`qitish jarayonida juda qimmatli va foydali hujjatdir. “Sali haqiqati”ni seminar va amaliy mashg’ulotlarda o`rganish zaruriy ilmiy-tekshirish malakasini hosil qiladi. Lekin “Sali haqiqati” shu xoldagi G’arbiy Yevropa haqiqatlari singari (huddi shuningdek , rus haqiqati singari) ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini o`zida mujassamlashtirgan qandaydir qarorlar shaklida berilgan tuzumli qonunlar to`plamidan iborat emas, albatta. Uning moddalari umumiy huquqshunoslik normalari xarakterida bo`lmasdan, balki aniq jinoyatlarning

---

<sup>19</sup> Фюстел де Куллянж. История общественного строя древней Франции. – Москва, 1907. –С. 20.

ro`yxati va bu jinoyatlarga nisbatan qo`llanadigan pul jarimalarini o`zida gavdalantirgandir.

“Sali haqiqati” franklarning V asrning oxirlaridagi xo`jaligini – dehqonchilik tartibini, franklar o`rtasidagi ijtimoiy tabaqalarni, franklarda qirol hokimiyatining qanchalik kuch-qudratga ega bo`lganligini ancha mukammal ifodalaydi. “Sali haqiqati”ga asoslanib franklarning asosiy mashg’uloti dehqonchilik bo`lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Haqiqatda keltirilgan moddalar erkin franklarning ekin erlari, yerni o`g’itlash tartibi va har xil dehqonchilik qurollari, ish hayvonlari bo`lganligini ko`rsatadi. Franklar xo`jaligida chorvachilik, ayniqsa, cho`chqachilik katta rol o`ynaganligi, ularning yana baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik , bog’dorchilik, polizchilik, tokchilik bilan shug’ullanligi ifoda qilinadi. Unda yana dehqonchilik bilan shug’ullanganligi ifoda qilinadi. Unda yana dehqonning xovlisi va xovlisidagi xo`jalik binolari, asbob-uskunalar ham izohlanadi. Jamoa a’zosi bo`lgan frank dehqonlari shaxsiy mulk tarzida tomorqa yerga ega bo`lganlar, jamoaga qarashli dalada ma’lum yer uchastkalrini ishlaganlar, jamoaga qarashli o`rmon va yaylovlardan birgalikda foydalanganlar. Bu qonunda yerni sotish va sotib olish to`g’risida, uni birovga in’om qilish yoki vasiyatga muvofiq boshqa kishiga topshirish to`g’risida hech narsa deyilmaydi. Chunki o`sha davrda franklarda yer xususiy mulk emas edi. Yer jamoa tashkilotining mulki bo`lib, ayrim frank o`z yer uchastkasidan ma’lum shartlar asosida foydalanardi. Hosil yig’ib olingach, dalalarda hamma birgalikda mol boqardi. “Sali haqiqati”ning ko`rsatishicha, urug’ jamoaga qarashli yerkarning asosiy egasi bo`lish bilan birga, siyosiy tashkilot ham edi. Urug’ a’zolarinig hammasi kafilikda qatnashardi<sup>20</sup>.

“Sali haqiqati” moddalari urug’chilik tuzumining yemirila boshlanganligidan ham dalolat beradi. Lekin, qirol hokimiyatining yuksalishi va jamiyatning sinflarga bo`linishi uchun shart-sharoitning paydo bo`lishi masalalari ancha kam ifodalangan. Frank jamoalaridan farq qilgan holda qironga yaqin turgan

---

<sup>20</sup> Курбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи... –Б. 40.

zodagon shaxslarning ahvoli, franklardagi yirik yer egaligining o'sishi "manba" da kam miqdorda izohlangan. Yana ham oz ma'lumotlar mahalliy galliyalik aholi haqida yozilgan. Moddalarning tasvirlashicha, franklar mahalliy aholidan yerkarni tortib olmay, ko`proq bo`sh yotgan yerkarga alohida holda joylashganlar, shuning uchun ham avval franklarning mahalliy aholi bilan qo'shilishi juda sekin borgan.

"Sali haqiqati" ning tuzilishi tartibsiz, jiddiy va ahamiyati kam jinoyatlar, ular uchun to`lanadigan jarimalar va vergeldlarning keltirilishi ketma-ket emas, shuning uchun moddalarni va paragraflarni hamda unga aloqador bir-birini to`ldiruvchi masalalarni yozib, guruhlarga bo`lishi kerak. Ba'zi paytlarda, qaysiki, bitta atama har xil mazmunni anglatganda: masalan, "Villa" atamasi ba'zi joylarda qishloqni anglatganini va ba'zi joylarda esa jamoachi uyini anglatilishini aniqlash kerak. Zeroki, gap o'sha bitta voqeа ustida borib, lekin uning taraqqiyoti har xil bosqichda bo`ladi.

"Sali haqiqati" dagi ko`p sonli moddalar franklarning Galliyada joylashganlaridan keyin dehqonchilik va xo`jalikning boshqa tarmoqlarining holatini ifodalash imkoniyatini ham beradi. Shu sababli dehqonchilik ishlarini yaxshilash uchun ko`rilgan tadbirlar natijasida erishilgan yutuqlari darajasi bilan solishtirib, tekshirib ko`rmoq kerak. Bunda xo`jalikda qanday yangi tarmoqlar paydo bo`lganini, franklar yerni ishslashda qanday qishloq xo`jalik qurollardan foydalanishni va boshqalarni aniqlash zarur. Jamoatchilarining ekin maydonlari va bo`linmagan yer, suv, o`rmon, yaylovlardan foydalanishdagi huquq darajasini, shuningdek, jamoaning o`z yerining yuqori egasi sifatidagi huquq darajasini aniqlash kerak. Bularning hammasini alohida jamoachilarining mol-mulkлага yakka egalik xarakteri masalasi bilan bog'lab olib borish kerak.

Franklardagi jamoa-markanining mavjudligini reaksiyon burjua tarixchilari Fyustel de Kulyanj, Vittix, so`ngra Dopsh turli yo`llar bilan inkor qilishga harakat qildilar. Ular yerga bo`lgan xususiy mulkchilikni va ijtimoiy tengsizlikni abadiylashtirish uchun, franklarda V – VI asrlarda yerga xususiy mulk bo`lgan, ularda jamoaning hech qanday izi ham bo`lmagan deydilar. Hozirgi zamon

reaksion burjua tarixchilari ham ularning reaksiyon qarashlarini quvvatlab, manbalarni soxtalashtirganlar.

Burjua tarixchilarining nazariyalarining noto`g`ri ekanligini bizgacha etib kelgan tarixiy manbalar, jumladan “Sali haqiqati” dagi qator moddalarda ko`rsatilgan franklardagi jamoa-markaning mavjudligi isbotlaydi. Masalan: “Sali haqiqati” dagi (ko`chib keluvchilar haqidagi) XIV moddada (1,2,3-paragraflar): “Agar biror kishi Villaga (qishloqqa) ko`chib kelishni istasa va Villada yashovchilarning bittasi yoki bir nechtasi uni qabul qilishga rozi bo`lsalar, lekin oralaridan bir kishi qarshi bo`lsa, u bu joyga ko`chib kelish huquqiga ega bo`la olmaydi”<sup>21</sup>.

Agar ko`chib keluvchi shunga qaramay qishloqqa kelib joylashsa, unga norozilik bildirgan shaxs ko`chib keluvchi shaxsga qarshi sud-jinoyat ishini qo`zg`ab, sud orqali uni Villadan haydab chiqarishi mumkin. Agar o`sha ko`chib keluvchi shaxsga 12 oy mobaynida hech qanday qarshilik ko`rsatilmasa, u “boshqa qo`snilari singari” bu joyda daxlsizlik bilan yashab qoladi. Bu yerda “qo`snilar” o`zining qishlog`ida (Villasida) yerga bo`lgan hamma munosabatlarni doimo tartibga soluvchi jamoa a`zolari sifatida chiqaradilar. Yerga jamoa egaligi haqida “Sali haqiqati” ning XXVII moddasida jamoa o`rmonlaridan birgalikda foydalanganligi haqida aytildi.

“Sali haqiqati” turli uy hayvonlari, parranda va boshqa narsalarni o`g`irlaganlarga solinadigan jarimalarning qator ro`yxatini keltiradi. Qonunda bunday jinoyatlar uchun belgilangan yuqori miqdordagi jarimalar franklarda uy hayvonlari va boshqa narsalarga xususiy mulkning paydo bo`lganligini ifodalaydi. Lekin “Sali haqiqati” hali u davrda ham yerga nisbatan xususiy mulkchilikni bilmaydi. Qonunda “Allod” haqidagi LIX moddada allod<sup>22</sup> (yer) hali hamma urug’ jamoalariga tegishli, deb yozilgan. Xuddi shu moddada yer shu urug’ qo`lidan tashqariga chiqib ketmasligi uchun uni ayollarda berish yoki qoldirish taqiqlangan.

---

<sup>21</sup> [http://www.osh.ru/pedia/history/west/dark\\_ages/salica.shtml](http://www.osh.ru/pedia/history/west/dark_ages/salica.shtml)

<sup>22</sup> Allod keyinchalik xususiy mulkka aylanadi.

Farzandsiz dehqon o`lsa, uning yeri aka-ukalariga va o`zining urug'idagi boshqa erkak qarindoshlariga o`tar edi.

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab franklar jamiyatida katta o`zgarishlar yuz beradi. Bu davrda yer qo`ldan-qo`lga o`tishi mumkin bo`lgan xususiy mulkka (allodga) aylanadi. Allodning vujudga kelishi bilan urug' dehqonchilik jamoasining jamoa-marka deb ataluvchi qo`shni yoki hududiy dehqonchilikka aylanishi tugaydi. Endi jamoa-marka qarindosh-urug'niki bo`lmay, balki qo`shninizidir, chunki ularning har biri kichik bo`lingan oilaning boshlig'i – o`z allodidagi chek yerga tamomila xususiy yer egasi bo`lib qoladi. Jamoa huquqi faqat markaning bo`linmagan yer-suviga taalluqli bo`lib qoladi, bulardan hamma jamoa a'zolari ilgarigidek jamoa bo`lib foydalanadilar. "Sali haqiqati"da ko`rsatilishicha, o`rmon, ishlatilmagan bo`sh yerlar, botqoqliklar, yo`llar jamoa mulki bo`lib, barcha birgalikda foydalanadi. Ayrim paragraflarda franklarning bog' va polizlari, ekin maydonlari to`siflari bilan bo`linganligi izohlanadi.

Allodning vujudga kelishi oddiy erkin jamoachilar o`rtasida ijtimoiy tabaqalanishni yanada chuquqlashtirib yubordi, katta yer egaligi yurik yer egalari xususiy mulkchilikning o`sishi uchun zamin bo`lib xizmat qildi. Franklarning uzoq davom etgan ichki va tashqi urushlari ilgari kuchli va mustaqil bo`lgan franklar dehqonchiliginiza iflashtirdi va vayron qildi. Urug' tuzumi davrida mavjud bo`lgan katta-katta sud jarimalarini to`lash frank dehqonlarining qashshoqlashishi va ularning yerdan ajrab qolishiga olib keldi. Qirol, uning askarlari, yuqori tabaqa ruhoniylar, saroyga yaqin turgan o`z yerlarining bir qismini saqlab qolgan rimlik yer egalari katta yerga ega bo`lib qoldilar. Lekin Merovinglar davridagi frank jamiyatni ilk feodal jamiyatni hisoblanadi, unda feodallahish jarayoni ancha sekin rivojlangan. Shu sababli VII asr oxirlariga qadar frank jamiyatidagi asosiy tabaqa erkin yer egalari-jamoachilar, uning asosiy xo`jalik tashkiloti esa erkin jamoa-marka bo`lgan. Ana shu moddalarga ham e'tibor berish kerak.

"Sali haqiqati" franklarning turmushi va hayotining hamma tomonlari bilan tanishish imkonini beradi. Bunda ularning xo`jaligi, ijtimoiy tuzumi aniq

ifodalangan. Bu manba orqali ulardag'i ijtimoiy munosabatlarning asta-sekin o'zgarib borishini ko'ramiz<sup>23</sup>. "Sali haqiqati" erkin franklarda urug'chilik tuzumi qoldiqlari mavjudligini ko'rsatadi. Ularning hayotida hali qarindoshchilik katta ahamiyatga ega edi. Buni XLIV modda tasdiqlaydi. Bu moddada qarindoshlar o'z qarindoshlaridagi beva ayolning turmushga chiqishida alohida badal (reypus) olishlari yoki to`lashlari kerak edi. Shu modda katta oilaning bo`linishi haqida ma'lum qilgan. Beva ayolning ikkinchi marta turmushga chiqishi yangilik bo`lib qon-qarindoshchilik munosabatlarini buzar edi. Shuningdek, sudda aybdor qarindoshi uchun kafolat berar edi. Frankni o`ldirganligi uchun to`lanadigan vergeldning faqat bir qisminigina qotilning oilasi to`lar edi. Qolganini urug' a'zolari to`lashi lozim edi. Olingan vergeld ham o`ldirilgan shaxsning oilasi bilan urug' a'zolari o`rtasida taqsim qilinar edi. Lekin "Sali haqiqati" da urug' munosabatlarining buzilib, yemirib borayotganligi ham tasvirlanadi. Urug'chilik munosabatlarining yemirilishi LVII moddada aniq ifodalanadi. Unda farnklar o`rtasida mulkiy tengsizlik belgilari ko`rinadi, ancha badavlatroqlari o`zlarining kambag'al qarindoshlariga jarima to`lamaslik uchun vorislik va kafolat huquqidan voz kechib, qarindoshlik ittifoqidan chiqishga harakat qilganlar.

"Sali haqiqati"ning LX moddasida qarindoshlikdan bosh tortuvchilar haqida yoziladi. Qarindoshchilikdan chiqishni istagan shaxs sud kengashiga kelib tungin (yuzlar sudining saylab qo'yilgan raisi) qarshisida tirsak uzunligida uchta novdaning o'zining boshi ustida sindirishi va shu novdalarni (to`rt tomonga) uloqtirib tashlab qarindoshlar bilan meroslik va turli masalalarda hisoblashishdan voz kechaman, deb aytishi kerak edi. Shundan keyin, agar uning qarindoshlaridan birortasi o`ldirilsa yoki o`lsa, u butunlay merosxo'rlikda yoki vergeld to`lashda ishtirok etmasligi shart, uning merosi esa xazinaga o'tishi lozim edi.

Frank jamoachilari orasida ijtimoiy tabaqalanish muammosi diqqatga sazovordir. Bunda jamoa ichidagi ilgarigi tenglik yo'qolib, kambag'al zodagon kishilarning paydo bo`lganligini ko`rsatuvchi moddalar bor. Unda xali xo`jalik

---

<sup>23</sup> <http://www.hrono.ru/dokum/0500dok/salpravda.php>

tegmagan, lekin franklar jamiyatining ancha ichkarisiga kirib borayotgan mulkiy va ijtimoiy tabaqalanishni aniq ajrata bilish lozim. Eng avvalo franklar jamiyatidagi alohida tabaqa vakillarining qirol va xarbiy zodagonlari, oddiy erkin jamoalar, yarim erkin littler va qullar (shunigdek, bo`ysundirilgan galliyaliklar, rimlik aholining turli qatlamlari) ahvolini ko`rib chiqish lozim. Ularni tasniflash uchun, bu tabaqa a`zolarining jamiyatda tutgan o`rnini aniq ifodalovchi vergeldlar (odam o`ldirganligi uchun to`lanadigan jarimlar) darajasidan foydalanish kerak.

Franklar o`rtasida tabaqalanish masalasi “Sali haqiqati”da o`z ifodasini topgan. Bu ilgari boshlangan jarayon haqida XLI va XXXV moddalarda oddiy erkin frankni o`ldirganligi uchun 200 solid<sup>24</sup> va qirol askarini o`ldirganlik uchun 600 solid vergeld to`laganligi ko`rsatiladi. Aholining boshqa toifasi litlar<sup>25</sup> haqida ham gapirilib, ular kichik hajmdagi vergeld, ya`ni 100 solid bilan himoya etilgan. Franklarda qullar ham bo`lib, “Sali haqiqati”da ular uy hayvonlariga tenglashtirilgan, agar ular o`ldirilsa uning xo`jayiniga 300 solid to`langan.

“Sali haqiqati”da yirik pomestlar haqida aniq yozilmagan bo`lsa ham ba`zi bir alomatlarga qarab fikr yuritilganda, V – VI asrlardayoq erkin frank qishlog’i bilan birga yirik yer egalarining yerlari ham bo`lgan. Katta yer egalari qirol va uning xarbiylari, yuqori tabaqa ruhoniylari, qisman saroy ahliga yaqin bo`lgan rimlik yer egalari bo`lgan. Shunga qaramay, bu davrda frank jamiyatida asosiy tabaqa erkin frank edi. U qishloq jamoasining to`la huquqli a’zosi, jamoa yerining egasi – mustaqil erkin dehqon edi.

Bu davrga oid manbalar VIII – IX asrlarda Franklar davlatida yerga egalik munosabatlarida tub o`zgarish bo`lganligini, yerga bo`lgan feodal hukmronlikning uzil-kesil o`rnatilganligini ko`rsatadi. Manbalar erkin dehqon jamoalari o`rnida feodal pomestesi votchinasi vujudga kelganligini ko`rsatadi, feodal qaram dehqonlarni ekspluatatsiya qilish, feodal rentalari – obrok va

---

<sup>24</sup> Solid – Rim-Viantiyada chiqadigan oltin tanga bo`lib, IV – VI asrlarda franklar o`rtasida ham keng tarqalgan.

<sup>25</sup> Lit – yarim erkin kishi

barshchina formasida, dehqonlarning qo`shimcha mehnatini o`zlashtirib olishi uchun katta yer egalariga xizmat qilganligini ko`rsatadi.

Karolinglar davrida to`liq holda tashkil topgan yirik feodal yer egalining tuzilishi xilma-xil ko`rinishga ega edi. Dunyoviy va cherkov katta yer egalarining yerlari turli ko`rinishda va turli hajmda edi. Ba`zilarining yeri yirik feodal votchina – pomeste ko`rinishida bo`lib, unga alohida qishloq, hatto ba`zida bir necha qishloq qaragan. Lekin ayrim hollarda yirik yer egalarining feodal votchinalari qishloqning bir qismini yoki ayrim xonadonlarni o`z ichiga olardi. Yirik yer egaligi tizimining xilma-xilligi feodalning hamma qishloq ustidan hukmronlikni birdaniga o`rnatmaganligini izohlaydi. U avval bir nechta dehqonlarning mayda yerlarini sotib olish yoki to`g`ridan-to`g`ri bosib olish yoli bilan egallay boshlagan, so`ngra esa sekin-asta butun erkin qishloq jamoasini o`z votchinasiga aylantirgan. Feodal pomestesidagi yerlar odatda ikki qismga – feodal xo`jaligi egallagan homiy yoki demon (lotinchcha, hukmdor) yeriga va qaram dehqonlar (kolon, lit...) foydalanadigan chek – “mans”, “gufa” yeriga bo`linadi.

Xo`jalik nuqtai nazaridan har bir feodal pomestesida xojayinning hovlisi – uyi, ho`jalik bilan bog`liq bo`lgan binolari, hunarmandchilik ustaxonalari, bog` va polizlari, uy hayvonlari va qushlar joylashgan hovlilar, feodalning xususiy mulki bo`lgan tegirmon va cherkov ham uning pomestesida joylashgan. Xo`jayinning ekin ekiladigan yerlari, yaylov va tokzorlari qaram dehqonlarga berilgan chek yeriga yonma-yon joylashgan. Xo`jayin yeriga ilgarigi erkin jamoa markasiga qarashli o`rmon-o`tloqlar, ishlanmagan bo`sh yerlar ham kiradi. Bu joylardan endilikda qaram dehqonlar xo`jayinga haq to`lash orqaligina foydalanish huquqiga ega bo`ladilar.

Dehqonlarga bo`lib berilgan chek yerlarga qaram dehqonlar joylashtirilgan. Dehqonning chek yeri – uning uyi bilan birgalikda hovlisi, ho`jalik

bilan bog'liq bo`lgan qurilishlari, poliz va tokzoridan iborat bo`lib, pomeste egasiga qarashli biror dehqonning yer uchastkasiga borib taqalgan<sup>26</sup>.

Karolnglar davridagi feodal qishlog'i va feodal pomestesida natural xo`jalik hukm surardi. Pomestening hamma ho`jalik faoliyati xo`jayin oilasini sururiy narsalar bilan ta'minlashga qaratilgan. Qirol pomestesi qirol xonadonini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Buyuk Karlning pomestelar haqidagi kaputulyariyasi, qirolning qo`l ostidagi hamma pomestelaridagi xo`jalik va boshqarish faoliyatiga qirolning doimiy aralashghanini tasvirlaydi. Votchina xo`jaligi feodalni asosiy hunarmandchilik mahsulotlari bilan ham ta'minlagan. Bu davrda hunarmandchilik qishloq xo`jaligidan ajratilmagan. Xojayin hovlasida yashovchi qaram dehqonlar va hunarmandlar o`z xo`jayinini ta'minlash uchun kiyim-kechak, poyabzal va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarganlar. Savdo aloqalari esa pomestesida xo`jaligida muhim rol o`ynamas edi. O`zlarining iste`molidan ortib qolgan mahsulotlarnigina sotganlar va pomesteda ishlab chiqarish mumkin bo`lmagan narsalarni sotib olganlar. Shuning uchun karolinglar imperiyasida ayrim Viloyatlararo doimiy savdo aloqalari o`rnatilmagan.

Tashqi savdo bo`lsa faqat yuqori tabaqa vakillarining qimmatbaho narsalarga bo`lgan talabinigina qondirib, iqtisodiy hayotning umumiylaraqqiyotiga yetarli ta'sir ko`rsata olmagan. Feodal pomestesidagi xo`jalik ishlari to`liq holda qaram dehqonlarning mehnati bilan bajarilgan. Ularning ko`pchiligi kolonlar, ya`ni shaxsiy "erkin" hisoblanib, yerni tashlab ketish huquqidani mahrum dehqonlardan iborat bo`lgan. Ularning joylashgan yerkari merosiy bo`lgan. Lekin ular yer bilan xo`jayinga qaram bo`lib, o`zlarining chek yerlaridan keta olmaganlar. Erdan ketgan har bir kolon ta'qib etilgan, jazolangan. Ularning "erkinligi" nisbiy bolib, haqiqatda ularning "tutqunlardan" hech qanday farqi bo`lmagan. Ular ham o`zlarining chek yerlariga birkitib qoyilgan bo`lib, belgilangan barshchina, natural obrok va biroz miqdorda renta puli to`lash shaklida "tutqunlik" majburiyatlarini bajarganlar. Kolonlarning asosiy qismi o`z mustaqilligini yo`qotgan jamoachi erkin

---

<sup>26</sup> Курбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи... –Б. 48.

dehqonlardan tashkil topgan. Kolonlar vaqtlar o`tishi bilan shaxsiy “erkinliklarini” ham yo`qotib, litlar va yerga biriktirilgan qullar bilan qo`shilib, krepostnoy dehqonlarga aylanganlar. Shuningdek, yerga qullar (servlar) ham biriktirilgan. Yerga biriktirilgan qullarning o`z xo`jaligi, ba`zi xo`jalik qurollari ham bo`lgan. Yerga biriktirilgan qullar o`z turmush sharoitlari bilan krepostnoy dehqonlarga yaqin kishilardir. Ular kolonlardan farq qilib, feodalga yer bilangina emas, shaxsiy tomondan ham qaram edilar. Erga biriktirilgan qullandan tashqari hali bevosita xo`jayin xo`jaligida ishlab, shu yerda yashovchi uy qullari ham bo`lgan, ularni sotish, sotib olish mumkin bo`lib, bunday qullarning nima narsasi bo`lsa, hammasi xo`jayinga tegishli edi<sup>27</sup>.

Qaram dehqonlardan yana biri litlar – yarim erkin kishilar, deb ataluvchi kategoriya ham bo`lib, ular o`z ahvollari jahatdan qanday bo`lmisin, dunyoviy yoki ruhoni yer egasining patronati (homiyligi) ostida bo`lib, chek yerdan merosiy foydalanganlar. Dehqonlarning bu xil turli kategoriyalarga bo`linishi bu vaqtda o`tmishdan qolgan bir sarqitdir. Haqiqatda franklarda bu vaqtda krepostnoy dehqonlar sinfi tashkil topgan bo`lib, bu sinfda endi erkinlar, yarim erkinlar (litlar) yoki tutqinlar (qullar) o`rtasidagi ilgarigi farqlar chindan ham yoqolib ketgan.

Hamma dehqon kategoriyalari xo`jayinning yerida ishlab, barshchina o`tagan, natural obrok va qisman pul rentasini to`lagan. Mana dehqonlar pomestening asosiy ishchi kuchi bo`lib, senor shular vositasida o`zining pomeste xo`jaligini olib borgan. VIII asr oxirlaridan majburiy bo`lgan uch dalali dehqonchilik ham dehqonlarning, ham xo`jayinlarning yerini o`z ichiga olgan.

Karolinglar davridagi feodal pomesteni o`rganishda Buyuk Karlning “Pomestelar to`g’risidagi kapitulyariy”si, “Abbat Irminon poliptigi”<sup>28</sup> deb atalgan hujjat va “Qirol va cherkov yerlar”<sup>29</sup> ro`yhatining namunalari katta ahamiyatga ega. Shu manbalarga qarab, biz ilk o`rta asrlardagi feodal pomestesining manzarasini ko`z oldimizga keltira olamiz.

<sup>27</sup> Курбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи... –Б. 50.

<sup>28</sup> <http://www.hrono.ru/dokum/0500dok/salpravda.php>

<sup>29</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>

“Pomestelar haqidagi kapitulyariy” qator olimlarning fikricha, Buyuk Karl tomonidan IX asrning boshlarida nashr etilgan. Lekin shunday fikrlar ham borki, u Buyuk Karlning o`g`li Akvitaniya qiroli Lyudovik hudojo`y tomonidan tuzilgan, deyiladi. Pomestelar haqidagi kapitulyariyda pomestelar qironga tegishli bo`lib, xo`jaligi ham to`liq holda qirollar manfaatini qondirish uchun qaratilganligi ifodalanadi. Kapitulyariyda xo`jalikni qanday boshqarish va olib kerakligi haqida ko`rsatmalar berilgan. Kapitulyariyda keltirilgan moddalarda aniq ko`rinadiki, qirol pomestesidagi xo`jaik yuqorida tasvirlaganimizdek, natural xarakterda bo`lgan. Kapitulyariyda pomestelarda etishtirilgan mahsulotlarning qirol oilasi va qirol saroyi ahllari ehtiyojlarini qoplashga sarflanganligi bir necha joyda izohlangan. Hatto qirolning pomestesi, uning daromadining asosiy manbasi bo`lib xizmat qilgan shuning uchun qirol o`z xo`jaligini namunali xo`jalikka aylantirish uchun harakat qilgan.

“Pomestelar haqidagi kapitulyariy” karolinglarning yirik votchina tuzumi bilan to`liq tanishtirib, uni o`rganishda muhim manba bo`lib xizmat etadi. Shu davrga hos manbalardan yana biri “Sen-Jermen poliptigi”dir. Sen-Jermen poliptigi – Parij yaqinidagi, hozir esa Parijning o`z ichida bo`lgan Sen Jermen de Pari abbatligidagi yer-mulkleri ro`yhati bo`lib, abbat Irminon tomonidan tuzilgan. Sen-Jermen poliptigining ahamiyati shundaki, u cherkov pomestelari haqida va o`sha vaqtagi krepostnoy dehqonlarning tarkibi haqida to`liq ma'lumot beradi. “O`sha vaqtda, Buyuk Karl hayot vaqtida, bu abbatlikka qarashli bo`lgan va tevarak atrofda cho`zilib yotgan keng yerda 2788 xo`jalik mavjud bo`lgan, bularning aholisi faqat deyarli germancha ismli franklardan iborat edi. Bulardan 2080 tasi kolonlar, 35 tasi litlar, 220 tasi qullar va faqat 8 tasi ko`chib kelib joylashgan erkin kishilar edi!”. (F. engels. “Oila, hususiy mulk va davlatning kelib chiqishi». 187-bet). Poliptik to`liq ravishda saqlanmagan, bizgacha alohida mulklarning 25 ta ro`yhati etib kelgan. Bu manbalarga tayangan holda, biz dehqonlarning chek yerkari (manslari) va ularning egalari tomonidan xo`jayinga to`langan soliqlar haqida xulosa chiqaramiz. Manslar rasmiy holda erkin, lit va qullar mansiga

bo`lingan. Ularning har biridan (“erkinidan”) ham alohida soliqlar undirilgan. Hujjatdan yana shuni ham aniqlash mumkinki, “erkin”, dehqon qulning mansini, kolon va qul esa erkin dehqon mansini ushlab turishi mumkin, lekin ushlab turgan manslarida qanday soliq turlarini to`lash lozim bo`lsa shuni to`lashlari zarur bo`lgan.

Yuqorida ko`rsatilgan bu manbalardan foydalanishda talaba quyidagilarga e’tibor berishi lozim. Irminon poliptigi cherkov yer egaligini xarakterlaydi. Unda keltirilgan parchalarda talaba har bir feodal pomesteda kolon, lit va qullarning manslari qancha ekanligini hisoblay oladi va bu manslarning ushlab turuvchilari ko`pincha qullar, kolonlar, litlar ekanligini ko`radi.

“Pomeste haqidagi kapitulyariy”, “Qirol va cherkov yerlari ro`yxati namunalari” feodal pomeste xo`jaligining asosini va pomestedagi boshqarish tartibini o`rganish imkoniyatini beradi va Frank davlati hududida “Sali haqiqati” davridan buyon iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotda qanday siljishlar bo`lganligini ko`rsatadi. Talaba masalani hal etish uchun, birinchi navbatda qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishida qanday o`zgarishlar bo`lganligini ko`rsatishi kerak. Eng avvalo, bunda IX asrda dehqonchilik, chovachilik, tokchilik, bog’dorchilikning ahvolini izohlab berishi zarur. Hunarmandchilikning rijojlanishi masalasi alohida ahamiyatga ega; bu yerda hunarmandchilikning ishlab chiqargan mahsulotlarini, ishlab chiqarish qurollarini, hunarmandlarning alohida kategoriylarini tahlil qilib berishi lozim. Hunarmandchilikning taraqqiyoti bilan pomestening almashinishidagiishtiroki masalasi ham muhim masala bo`lib turadi. Bu savolni shunday qilib qo`yish mumkin: pomeste bozor bilan bog’langanmi va u o`z talabini qanday qondiradi? Bu masala mavzudagi muhim savollardan biri hisoblanadi. “Kapitulyariy” matni bu savolga etarli javob bera oladi.

Muhim masalalardan biri – qaram dehqonlarning tarkibiga xarakteristika berish masalasidir. Bunda dehqonlarning turli toifalari mavjudligini ko`rsatish zarur. Talaba har bir dehqon toifasining ahvolini tahlil qilishda, ularning pomestedagi ishlab chiqarish funktsiyasini, ularning hammasi yerga joylashtirilgan

-joylashtirilmaganlarining qanday chek yeri borligi va yer rentasining xarakteri to`g'risidagi savollarga javob berishi kerak<sup>30</sup>.

Karolinglar davridan bizgacha etib kelgan manbalarda dehqonlarning o`z faollariga oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari hunarmandchilik buyumlari etishtirib berishga majbur qilinganliklari haqida ham ma'lumot berilgan. Sen-Jermen monastrining poliptigida dehqonlarning monastirga to`quvchilik, temirchilik, duradgorlik va boshqa xil buyumlarni berishga majbur etilganliklari ifodalanadi. Buyuk Karlning “Pomestelar haqidagi kapitulyariy”sida (temirchilik, zargarlik, ko`nchilik, to`quvchilik va h. k.) haqida gapiriladi. Bu saroy hunarmandlari pomestega birkitilgan bo`lib, ularning ishlab chiqargan mahsulotlari to`liqligicha feodalning ehtiyojini qondirish uchun ketardi. “Pomestelar haqidagi kapitulyariy”da va boshqa manbalarda bozorlar haqida ham ma'lumot berilgan. Cherkov va monastirlarga yaqin joylarda yarmarkalar bo`lgan. Lekin bu yarmarkalarda savdogarlar ajnabiy savdogarlar bo`lib, ular feodallarning qasr va qo`rg'onlariga ham kirib turli buyumlarni sotganlar. Bunday ayirboshlash ishlab chiqarishning asl mohiyatiga ta'sir qilmagan. VIII – IX asrlardagi tarixiy manbalar Avstriya tarixchisi A. Dopsh va uning izdoshlarining karolinglar davrida “votchina kapitalizmi” formasidagi kapitalistik xo`jalik hukm surgan, degan uydurma fikrini to`liq fosh etadi. F. Engels “Anti-Dyuring” nomli asarida bu davrni shunday deb tasvirlagan: “O`rta asrlardagi dastlabki yuz yilliklarida ishlab chiqarish asosan shaxsiy iste'molga mo`ljallangan edi. Ishlab chiqarish hammadan burun ishlab chiqaruvchining o`z ehtiyojini va uning oilasi ehtiyojini qondirar edi. Dehqonchilikdagi singari, shaxsiy qaramlik hukm surgan holda esa, ishlab chiqarish feodal xo`jayinning ehtiyojini ham qondirar edi. Demak, bu vaqtida ayirboshlash yoq edi, mahsulotlar ham tovar tusiga kirmagan edi. Dehqon oilasi o`ziga kerakli narsalarni, qurol-asbob va kiyim-kechakni, shuningdek, oziq-ovqatni ham o`zi ishlab chiqarar edi”. Feodal pomestesi o`z xo`jaligining maqsad va vazifalari jihatdan hali bu davrda asosan natural xo`jalikka asoslangan edi.

---

<sup>30</sup> Курбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи... –Б. 54.

## II. “SALI HAQIQATI”DA FRANKLAR IQTISODIY VA MAISHIY TURMUSHINING YORITILISHI

### 2.1. “Sali haqiqati”da franklar hayotida jinoiy javobgarlik haqidagi ma'lumotlar

“Sali haqiqati” franklarning turmushi va hayotining barcha tomonlari bilan tanishish imkonini beradi. Bunda ularning xo`jaligi, ijtimoiy tuzumi aniq ifodalangan. Bu manba orqali ulardagagi ijtimoiy munosabatlarning asta-sekin o`zgarib borishini ko`ramiz<sup>31</sup>. “Sali haqiqati” erkin franklarda urug’chilik tuzumi qoldiqlari mayjudligini ko`rsatadi. Ularning hayotida hali qarindoshchilik katta ahamiyatga ega edi. Buni XLIV modda tasdiqlaydi. Bu moddada qarindoshlar o`z qarindoshlaridagi beva ayolning turmushga chiqishida alohida badal (reypus) olishlari yoki to`lashlari kerak edi. Shu modda katta oilaning bo`linishi haqida gapiradi. Beva ayolning ikkinchi marta turmushga chiqishi yangilik bo`lib qon-qarindoshchilik munosabatlarini buzar edi. Shuningdek, sudda aybdor qarindoshi uchun kafolat berar edi. Frankni o`ldirganligi uchun to`lanadigan vergeldning faqat bir qisminigina qotilning oilasi to`lar edi. Qolganini urug’ a’zolari to`lashi lozim edi. Olingan vergeld ham o`ldirilgan shaxsning oilasi bilan urug’ a’zolari o`rtasida taqsim qilinar edi. Lekin “Sali haqiqati” da urug’ munosabatlarining buzilib, emirib borayotganligi ham tasvirlanadi. Urug’chilik munosabatlarining yemirilishi LVIII moddada aniq ifodalanadi<sup>32</sup>. Unda farnklar o`rtasida mulkiy tengsizlik belgilari ko`rinadi, ancha badavlatroqlari o`zlarining kambag’al qarindoshlariga jarima to`lamaslik uchun vorislik va kafolat huquqidan voz kechib, qarindoshlik ittifoqidan chiqishga harakat qiladilar.

“Sali haqiqati”ning LX muddasida qarindoshlikdan bosh tortuvchilar haqida ma'lumot beriladi. Qarindoshchilikdan chiqishni istagan shaxs sud kengashiga kelib tungin (yuzlar sudining saylab qo`yilgan raisi) qarshisida tirsak uzunligida uchta novdaning o`zining boshi ustida sindirishi va shu novdalarni (to`rt

<sup>31</sup> Салическая правда... – С. 54.

<sup>32</sup> [http://www.osh.ru/pedia/history/west/dark\\_ages/salica.shtml](http://www.osh.ru/pedia/history/west/dark_ages/salica.shtml)

tomonga) uloqtirib tashlab qarindoshlar bilan meroslik va turli masalalarda hisoblashishdan voz kechaman deb aytishi kerak edi. Shundan keyin, agar uning qarindoshlaridan birortasi o`ldirilsa yoki o`lsa, u butunlay merosxo`rlikda yoki vergeld to`lashda ishtirok etmasligi shart, uning merosi esa xazinaga o`tishi lozim edi.

“Sali haqiqati” da keltirilgan masalalar ijtimoiy hayot tarzini aks ettirib ko`proq xuquqiy masalalar aks ettirilgan bo`lsada, iqtisodiy masalalarni ham ko`rish mumkin. Qonunning sudga chaqirish haqidagi moddalarida belgilangan jarimalar ham bir tomondan iqtisodiy masalalarning aks ettirilishidir. Tabiiyki, qonunlarda o`sha davr uchun eng zarur bo`lgan jinoyatlar va ular uchun belgilangan jazolar inobatga olingan. Jinoyat va jinoyat uchun jazolar o`ziga xos tartib bilan ketma – ketlikda berilgan. Masalan, parrandalarni o`g`irlaganligi uchun, qo`ylarni o`g`irlaganligi uchun, echki larni o`g`irlaganligi uchun, sigir larni o`g`irlaganligi uchun, cho`chqa larni o`g`irlaganligi uchun va hokazo.

To`plamda dastlab sudga chaqirish bo`yicha tartib belgilangan. Bu maxsus sudning, qolaversa, qonunlar to`plamining bajarilishi, obro`si hamda qonunni hurmat qilishni o`rgatish uchun yozilgan bo`lishi mumkin.

“1. Agar kimki qirol chiqargan qonun bo`yicha sudga chaqirilsa, lekin kelmasa 600 denariy<sup>33</sup>, ya’ni 15 solid to`lashga hukm qilinadi.

2. Agar birovni sudga chaqirtirib, o`zi kelmasa, kelmaganligini isbotlovchi qandaydir qonuniy sabablari bo`lmasa, u sudga chaqirilgan odam foydasiga 15 solid to`lashga hukm qilinadi...

4. Agarda aybdor, qirol xizmatini o`tayotgan bo`lsa, sudga chaqirilishi mumkin emas”<sup>34</sup>.

“Sali haqiqati” matnida sudga chaqiruvdan keyin o`g`irlik haqida moddalar berilgan bo`lib, ular II bo`limga ajratilgan:

---

<sup>33</sup> Denariy - kumush tanga, 40 kumush denariy 1ta solidni tashkil qiladi.

<sup>34</sup> <http://www.hrono.ru/dokum/0500dok/salpravda.php>

“1. Agar kimki 2 yoshlik cho`chqani o`g’irlasa, keltirilgan zarar va o`g’irlanganlikning bahosi hisoblanmasdan 15 solid to`lashga hukm qilinadi...

11. Agar kimki podani boshlab yuruvchi to`ng’iz yoki cho`chqani o`g’irlasa o`g’irlanganning bahosi va keltirilgan zarar o`rnini qoplashi hisoblanib, 17-2 solid to`lashga hukm qilinadi”<sup>35</sup>.

To`plamning III bo`limi qoramollarni o`g’irlaganlik va o`g’irlik uchun ja`zolar haqidadir:

...3. Agar kimki ho`kiz yoki buzog’i bilan sigir o`g’irlasa 35 solid to`lashga hukm qilinadi.

4. Agar kimki podani boshlab yuruvchi va hech qachon bo`yunturuqda bo`lмаган ho`kizni o`g’irlasa, 45 solid to`lashga hukm qilinadi”<sup>36</sup>. Ko`rinib turibdiki, belgilangan jazolar o`g’irlangan hayvonlarning qiymati va ahamiyati bilan bog’liq. Bundan tashqari to`plamda hayotning ijtimoiy jihatlari, ya`ni tabaqalar o`rtasidagi farqlarni ham ko`rsatilgan. Masalan, ho`kiz o`g’irlaganligi uchun 45 solid jazo belgilangan. Agar qirolda qarashli ho`kiz o`g`irlansa 90 solid, ya`ni ikki barobar ko`p jazo belgilangan.

“Sali haqiqati”ning IV bo`limi qo`ylarni o`g’irlaganliklari haqidadir:

“...2. Agar kimki bir yoshlik yoki ikki yoshlik qo`yni o`g’irsa, o`g’irlangan qo`yning bahosi va keltirilgan zararni hisobga olmay, 3 solid to`lashga hukm etiladi...

4. Agar kimki 40 ta yoki undan ko`p qo`yni o`g’irlasa, hamma podani o`g’irlaganligi haqida hukm chiqarilib, o`g’irlangan qo`ylarning bahosi va uning zararidan tashqari 63 solid to`laydi”<sup>37</sup>.

To`plamning keyingi 5-bo`limi moddalari echkilarni o`g’irlaganlik to`g’risidadir:

“1. Agar kimki 3 echki o`g’irlasa fosh qilinib, o`g’irlanganning bahosi va zararining o`rnini to`ldirish hisobga olinmay, 3 solid to`lashga hukm etiladi.

<sup>35</sup> <http://www.hrono.ru/dokum/0500dok/salpravda.php>

<sup>36</sup> <http://www.hrono.ru/dokum/0500dok/salpravda.php>

<sup>37</sup> <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>

2. Agar kimki 3 tadan ortiq echkini o`g'irlasa, o`g'irlaganning bahosi va zararning o`rnini to`ldirish hisobga olinmay, 15 solid to`lashga hukm qilinadi”<sup>38</sup>. Uy hayvonlari orasida echkining ahamiyati pastroq bo`lganligi shu qonunlar to`plamida ko`rinadi. Bu o`g'irlik uchun faqatgina 2 ta modda mavjud. Shu kabi 2 ta modda it o`g'irligi uchun ham belgilangan bo`lib, VI bo`limga kiritilgan:

“1. Agar kimki o`rgatilgan ov itini o`g'irlasa yoki o`ldirsa, 15 solid to`lashga hukm qilinadi.

2. Agar kimki podachining itini o`g'irlasa yoki o`ldirsa, o`g'irlagannning bahosi va zararning o`rnini qoplash hisobga olinmay, 3 solid to`lashga hukm qilinadi”<sup>39</sup>.

Jamiyatda echki yoki itlarga nisbatan qushlarning ahamiyati balandroq belgilangan bo`lsa kerak bu o`g'irlik uchun to`rt modda va qo`shimcha o`n bir band belgilangan:

“...3. Ikkinchisi to`ldirish. Agar kimki xo`roz o`g'irlasa, o`g'irlaganning bahosi va keltirilgan zararining o`rnini qoplash hisobga olinmay, 3 solid to`lashga hukm qilinadi.

Uchinchi qo`shimcha. Agar kimki tovuq o`g'irlasa, o`g'irlanganning bahosi va keltirilgan zararning o`rnini qoplash hisobga olinmay, 3 solid to`lashga hukm qilinadi.

4. Agar kimki g`oz o`g'irlasa fosh qilinib, 3 solid to`lashga hukm qilinadi...

Beshinchi qo`shimcha. Agar kimki begonaning qafasidan kaptarini o`g'irlasa, 3 solid to`lashga hukm qilinadi”<sup>40</sup>.

Asalarini o`g'irlaganligi uchun uchta qo`shimcha band bilan to`rtta modda belgilangan:

“1. Agar kimki, qulflangan joydan bitta asalari yashigini o`g'irlasa, fosh qilinib, 45 solid to`lashga hukm etiladi...

---

<sup>38</sup> <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>

<sup>39</sup> <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>

<sup>40</sup> <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>

4. Agar kimki 7 ta yoki undan ko`p asalari yashigini o`g'irlasa va o`g'irlangan joyda nimadir qolsa, o`g'irlanganning bahosi va keltirilgan zararning o`rnini qoplash hisobga olinmay, 45 solid to`lashga hukm etiladi”.

IX bo`lim ekinzor yoki qanday bo`lmasin ihota qilib olingan joyga etkazilgan zarar haqida:

1. Agar kimki o`zining ekin maydonida qoramol yoki ot yoki qanday bo`lmasin mayda hayvonni uchratsa unga shikast etkazmasligi kerak. Agar u shu ishni qilsa xatosiga iqror bo`lib, uning bahosini to`lab, shikastlangan hayvonni o`ziga olishi kerak. Agar iqror bo`lmasa, aybi fosh qilinib, 15 solid to`lashga hukm qilinadi...

4- agar kimningdir cho`chqasi, qoramoli yoki molning egasi begona odamning ekinzori to`sib qo`yilganiga qaramay to`siqni buzib kirsa, aybini aniqlab, 15 solid to`lashga hukm qilinadi.

2-qo`shimcha. Agar kimdir dushmanlik yoki makkorlik bilan birovning ihotasini buzib ekin maydoniga, yayloviga, uzumzoriga yoki qandaydir boshqa ekinzorga molini kirtsса, unda jinoyatchidan keltirilgan zararni to`latib va undan tashqari 30 solid to`lashga hukm etiladi”<sup>41</sup>.

“Sali haqiqati” feodal munosabatlar haqida qonunlar to`plami bo`lishiga qaramasdan quldorlik munosabatlari mavjudligi haqida ma`lumot beradi. To`plamning o`ninchи bo`limi moddalari qul o`g'irlaganlik haqidadir:

“1. Agar kimki qulni, otni, no`xtalangan molni o`g'irlasa, 3 solid to`lashga hukm etiladi...

2-qo`shimcha. Agar kim birovning qulini o`g'irlasa, 30 solid to`lashga hukm etiladi...”<sup>42</sup>. Quyon o`g'irlashga bag`ishlangan ikkita modda bo`lib bularga 5 ta qo`shimcha band biriktirilgan. Bu echki yoki it o`g'irligidan ahamiyatli ekanligini ko`rsatadi.

---

<sup>41</sup> Салическая правда... –С. 55.

<sup>42</sup> Салическая правда... –С. 55.

“Sali haqiqati”ning XIII bo`limi moddalari erkin kishilarni o`g’irlaganlik uchun jazolar haqida bo`lgan. Boshqa moddalarda bo`lgani kabi insonning jamiyatdagi o`rni va o`g’irlik xolati hisobga olingan. Masalan, agar uch kishi erkin qizni o`g’irlasa, ularning har biri 30 solididan to`lashlari kerak bo`lgan. Agar o`g’irlik qilganlarning soni uch kishidan ko`p bo`lsa, ularning har biri 5 solididan to`lashlari kerak bo`lgan. Tabaqaviy munosabat mavjudligi uchun agar o`g’irlangan qiz qirolding homiyligida bo`lsa, bunday holatda “qirolding bitimini” buzganligi uchun 63 solid to`lashi shart edi. Lekin qirolding qili yoki liti erkin ayolni o`g’irlasa o`limga hukm qilingan yoki erkin qiz o`z hoxishi bilan qulga ergashib ketsa, qiz o`z erkinligidan mahrum qilingan. 1-qo`shimchada esa shunday modda mavjud: agar kimki begona lit qizini xotinlikka olsa, 30 solid to`lashga hukm qilinadi”<sup>43</sup>.

To`plamning XIV bo`limi bosqinchilik va talonchilik uchun jazolar haqidadir. Ijtimoiy barqarorlik zarurligi uchun bosqinchilik yoki talonchilik uchun nisbatan og’irroq jazolar belgilangan:

- “1. Agar kimki erkin kishiga to`satdan bosqinchilik qilsa, aybi oshkor qilinib, 63 solid to`lashga hukm etiladi.
- 2. Agar rimlik salilarga tegishli varvarni talasa, 35 solid jarima to`lshga hukm etiladi...
- 4. Agar kimki boshqa joyga ko`chib o`tish uchun qiroldan yorliq olsa va u umumiy yig’ilishda yorliqni ko`rsatsa, bunda kimdir qirolding buyrug’iga qarshilik ko`rsatishga jur’at qilsa, u 200 solid to`lashga majbur qilinadi...
- 6. Agar kimki birovning villasiga bostirib kirsa, bosqinchilikdagi hamma ayb bo`yniga qo`yilib 63 solid to`lashga hukm qilinadi.

---

<sup>43</sup> <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>

1-*qo`shimcha*. Agar kimki birovning villasiga bosqinchilik qilib kirib u yerdagи eshikni buzsa, itni ursa va odamlarni yarador qilsa yoki u yerdan aravada nimanidir o`g'irlasa, 200 solid to`lashga hukm qilinadi”<sup>44</sup>.

To`plamning XXII bo`limi tegirmonda o`girlik qilganlik haqida bo`lib bu jinoyat uchun o`ziga xos jazolar belgilangan:

“1. Agar qandaydir erkin kishi tegirmonda birovning g`allasini o`g'irlasa, javobgarlikka tortilib, tegirmonchiga 15 solid, g`alla egasiga 15 solid to`lashi kerak.

1-*qo`shimcha*. Agar bu joyda temir qismlarini o`g'irlasa, 45 solid to`lashga hukm qilinadi.

2-*qo`shimcha*. Agar kimki tegirmon to`g'onini buzsa, 15 solid to`lashga hukm qilinadi...”

“Sali haqiqati”ning XXVII bo`limi boshqa bo`limlardan farq qiladi. Bo`lim turli jinoyat turlari bilan bog`liq. Bo`limning davstlabki moddasi poda bo`lboshchisi bo`ynidagi qo`ng`iroqni o`g'irlaganligi uchun 15 solid to`lashga majbur ekanligidan boshlanadi. Moddalarda olma o`g'irlaganligi uchun, nok o`g'irlaganligi uchun, uzum o`g'irlaganligi uchun, pichan o`g'irlaganligi uchun, qul bilan xo`jayinning ruxsatisiz kelishuvga borgani uchun, yer haydashga xalaqit bergenligi uchun, o`rmon yoki bog`larga ziyon etkazganligi uchun va shunga o`xshash keltirilgan ziyonlar uchun jazolar belgilangan. Bo`lim moddalari qo`shimcha bandlaridan tashqari 26 tani tashkil etgan. Quyida shu moddalarning ayrimlarini ko`rishimiz mumkin:

“...5. Agar kimki yashirin holda o`z molini birovning ekin maydoniga kiritса, jinoyat joyida ushlansa, 15 solid to`lashga hukm qilinadi.

2-*qo`shimcha*. Agar kimki o`g`irlik yo`li bilan birovning etilgan ekinini o`rib olsa va jinoyat ustida qo`lga tushsa, 15 solid to`lashga hukm qilinadi.

---

<sup>44</sup> Салическая правда... –С. 56.

...7. Agar kimki o`g`irlik maqsadida sholg`om, dukkakli o`simgiliklar, no`xat, yasmiq ekilgan ekinzorga kirsa 3 solid to`lashga hukm etiladi.

8. Agar kimki birovning ekinzoridan zig`irini o`g`irlab, uni otda yoki aravada olib ketsa, o`g`irlangan zig`irning bahosi hisoblanmay, 15 solid to`lashga hukm qilinadi.

9. Lekin yelkasida qanchalik olib ketolganicha olsa, 3 solid to`lashga hukm etiladi.

10. Agar kimki birovning pichanini o`rsa, o`z mehnatini yo`qotadi.

11. Agar buning ustiga pichanni o`zining uyiga olib ketib, u yerda yoyib qo`ysa, o`g`irlaganning bahosi va zararni qoplashdan tashqari, 45 solid to`lashga hukm qilinadi.

12. Agar u o`z yelkasida olib ketishi mumkin bo`lgan miqdorda o`g`irlasa, 2 solid to`lashga hukm etiladi.

13. Agar kimki birovning tokzoriga uzum o`g`irlash uchun kirsa va shu joyda ushlansa, 5 solid to`lashga hukm qilinadi.

...16. Agar kimki o`rmonda birovning qurol-asbobini yondirsa, buzsa yoki daraxtlarni qirqsa, 15 solid to`lashga hukm qilinadi.

...24. Agar kimki birovning yerini xo`jayinning ijozatisiz hayday boshlasa, 15 solid to`lashga hukm qilinadi.

25. Agar kimki unga ekin eksa, 45 solid to`lashga hukm etiladi”<sup>45</sup>.

To`plamning XXX bo`limida xaqrarat qilganlik uchun jazolar belgilangan va bu jinoyat bo`yicha moddalar soni 7 tadan iborat bo`lib 1 ta qo`shimcha band mavjud:

“...2. Agar kimki birovni iflos deb atasa, 3 solid to`lashga hukm qilinadi.

...4. Agar kimki birovni bo`ri deb atasa, 3 solid to`lashga hukm qilinadi.

5. Agar kimki birovni quyon deb atasa, 3 solid to`lashga hukm qilinadi.

...7. Agar kimki birovni so`z tashuvchi yoki yolg`onchi, deb atasa va uni isbot qilolmasa, 15 solid to`lashga hukm qilingan.

---

<sup>45</sup> <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>

1- qo`shimcha. Agar kimki birovni badbashara deb atasa, 3 solid to`lashga hukm qilinadi”<sup>46</sup>.

“Sali haqiqati”ning XXXV bo`limida nullarni o`ldirganligi yoki o`g’irlaganliklari haqida alohida moddalar mavjud bo`lib keyingi moddalar tan jaroxati va ziyon etkazish uchun jazolar hafida:

“1. Agar qandaydir qul qulni o`ldirgan bo`lsa, xo`jayinlar jinoyatchini o`zaro bo`lib olsinlar.

2. Agar qandaydir erkin kishi birovning qulini o`ldirsa, jinoyatga tortilib 30 solid to`lashga hukm qilinadi”<sup>47</sup>.

...4. Agar qandaydir erkin kishi birovning litini o`g’irlasa, jinoyatga tortilib, 35 solid to`lashga hukm qilinadi.

5. Agar birovning quli yoki liti erkin kishini o`ldirsa, o`ldirilgan kishining oilasiga jinoyatchining o`zi virgildning yarmi sifatida topshiriladi, qulning xo`jayini esa virgildning qolgan yarmini to`laydi.

6. Agar kimki hovli xizmatkorini yoki temirchini, zargarni yoki cho`chqabiqarni, tokchini yoki otboqarni o`ldirsa, jinoyatga tortilib, 30 solid to`lashga hukm etiladi”<sup>48</sup>.

“Sali haqiqati”ning XXXIX va XL bo`limlari ilgari takrorlanganidek nullarni o`g’irlaganliklari haqidadir. Masalan, agar kimki birovning qulini qiziqtirib olib ketsa, javobgarlikka tortilib, 15 solid to`lashga hukm qilingan, agar birovning quli o`g’irlanib, dengiz tomonga olib ketilsa, u yerda o`z xo`jayini tomondan topilsa, u ommaviy yig’ilishda o`g’irlanganning nomini aytib, u yerda guvohlarni to`plash kerak, agar kimki rimlikni o`g’irlasa 63 solid to`lashga hukm qilingan va xakozo.

“Sali haqiqati”ning XXXVII bo`limi ham ilgarigi bo`limlarda bo`lgan ot o`g’irlaganlik haqidagi jazolar berilgan:

---

<sup>46</sup> Курбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи.. –Б. 48.

<sup>47</sup> <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>

<sup>48</sup> <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>

“1. Agar kimki eng arzon otni o`g`irlasa, jinoyatga tortilib, o`g`irlaganning bahosi va zararni qoplash hisoblanmay, 45 solid to`lashga hukm qilinadi.

2. Agar kimki zotli ot bolalarining 12 ta biyalik podasini o`g`irlasa, o`g`irlaganning bahosi va zararni qoplash hisobga olinmay, 63 solid to`lashga hukm qilinadi”.

“Sali haqiqati”da har qanday jinoyat uchun aniq bir jazo belgilab berilgan. Bu o`z navbatida iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini yaxshilashga olib keladi. Ammo bu tarixiy qonun barchani erkinligini birdek himoya qilgan deya olmaymiz. Buni esa yuqoridagi ma`lumotlar yaqqol ko`rsatib turibdi. Bo`limlar va ulardagi moddalar aralash kelgan joylari ham bor. Masalan, hayvon o`g`irlaganligi uchun yoki qullar bilan bog`liq moddalar aralash kelgan. Shunday bo`lishiga qaramasdan qonun o`z davri uchun tushunarli va adolatli bo`lgan.

## **II.2. “Sali haqiqati”da franklar maishiy turmushining tasvirlanishi**

“Sali haqiqati”dagi ko`p sonli moddalar franklarning Galliyada joylashganlaridan keyin dehqonchilik va xo`jalikning boshqa tarmoqlarining holatini ifodalash imkoniyatini ham beradi. Shu sababli dehqonchilik ishlarini yaxshilash uchun ko`rilgan tadbirlar natijasida erishilgan yutuqlari darjasini bilan solishtirib, tekshirib ko`rmoq kerak. Bunda xo`jalikda qanday yangi tarmoqlar paydo bo`lganini, franklar yerni ishslashda qanday qishloq xo`jalik qurollardan foydalanishni va boshqalarni aniqlash zarur. Jamoatchilarining ekin maydonlari va bo`linmagan yer, suv, o`rmon, yaylovlardan foydalanishdagi huquq darajasini, shuningdek jamoaning o`z yerining yuqori egasi sifatidagi huquq darajasini aniqlash kerak. Bularning hammasini alohida jamoachilarining mol-mulkarga yakka egalik xarakteri masalasi bilan bog`lab olib borish kerak. Shu bilan bir qatorda ularning turmush tarzi va darajasini ham aniqlash imkon mavjud. Buni esa boshqa manballar bilan birgalikda to`ldirish va solishtirish maqsadga muvofiq. Bu o`z navbatida davrlar o`tishi bilan qanday o`zgarishlar bo`lganligini aniqlash

imkonini yaratib beradi. Masalan “Sali haqiqati” bilan bиргаликда “Pоместелар haqida kapitulyariy”сини о`рганиш lozim. Bunda bevosita mayishiy turmush darjasи qanday huquqlarga asoslanganligini solishtirish imkonini beradi. “Pоместелар haqida kapitulyariy”sida quyidagi ma’lumotlar, ayniqsa, diqqatga sazovor:

- “1. Bizning shaxsiy ehtiyojimizni qondirish uchun pomestemizni kimga belgilab bergen bo`lsak, - deyiladi hujjatda<sup>49</sup>, - u boshqa odamlarga emas, balki to`liq holda biz uchun xizmat qilishini istaymiz.
2. Bizning pomestemizdagи odamlarimiz bilan yaxshi munosabatda bo`lishsin va hech kim ularni xonavayron bo`lishga yo`l qo`ymasin.
3. Boshqaruvchilar bizning odamlarimizni o`zlariga xizmat qildirishni o`ylamasinlar, ulardan barshchina, o`rmonlarni kesishi va o`z foydalari uchun boshqa ishlarni bajartirishni talab qilmasinlar; ulardan qovoq, bog’ mevalari, olma, tovuq, tuxumdan tashqari qanday bo`lmasin biror narsani – otmi, buqami, sigirmi, cho`chqami, qo`ymi yoki boshqa sovg’ani talab qilmasinlar.
4. O`z odamlarimiz bizga o`g’irlik bilan yoki boshqa harakatlari bilan zarar keltirsalar, to`liq holda uning o`rnini to`lasinlar. Undan tashqari jinoyatchilar qonun bo`yicha qamchi bilan qattiq savalansinlar, qotillik va o’t qo`yanlikni istisno qilgan holda bizning fisklarimizda yoki pomestemizda yashovchi erkin kishilar, agar jinoyat qilsalar qonun oldida javob bersinlar va jarima sifatida to`langan narsalari, mol bo`ladimi yoki boshqa biror narsami, bizga topshirilishi lozim.
5. Bizning boshqaruvchilarimiz bizning ishlarimizni – ekin ekish, chopish, hosilni yig’ish, pichan o`rish, uzum uzish paytida bajarishlari zarur. Ularning har biri ish vaqtida, ishning o`z vaqtida va bekamu-ko`s st bo`lishi uchun, hamma joyda, har doyim ishni qanday olib borish haqida ko`rsatma berib turishi lozim. Agar o`zi yo`q bo`lsa yoki qaergadir borolmasa, bizning odamlarimizdan yaxshi vakilni yoki

---

<sup>49</sup> Madaminov T. O’rta asrlar tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2007. –B.13.

boshqa ishonchli kishini ishimizni yaxshi bajarilishi uchun qarab turishga tayyorlashi kerak<sup>50</sup>.

7. Har bir boshqaruvchi, unga nima xizmat topshirilgan bo`lsa, o`z xizmatini to`liq bajarishi lozim, agar ko`proq xizmat qilish zarur bo`lib qolsa, shu xizmatni bajarish uchun odamlarni ko`paytirish kerakmi yoki xizmatni bajarish uchun vaqtini ko`proq ajratish kerakmi, boshqaruvchi o`zi hisoblab chiqib ko`rsatma berishi zarur.

8. Bizning boshqaruvchilarimiz bizning tokzorlarimizni o`z qaramog'iga olganliklari sababli uni yaxshi parvarish ham qilishlari zarur. Vinoning o`zini idishlarga solib, vino buzilib qolmasligi uchun uni diqqat bilan kuzatib turishlari ham lozim; boshqa oddiy vinoni esa pomestedagi amaldorlarni ta'minlash uchun sotishlari kerak. Agar bunday vino bizning pomestemizni qondirish uchun yuborilgandan ko`ra ko`proq sotiladigan bo`lsa, u holda bizga habar qilish zarur, biz esa o`zimizning fikrimizni ma'lum qilamiz. Tokning chiqindilarini bizning ehtiyojimiz uchun yuborishlari kerak. Bizning pomestelarimizdan vino bilan to`lanadigan obrok bizning vino saqlanadigan erto`lalarimizga jonatilishi lozim.

9. Bizning saroyimizda biz qanday o`lchovga ega bo`lsak, har bir boshqaruvchi o`z okrugida shunday o`lchovga – modiy, sextariy, sextariylik situl va korobgaga bo`lishlarini istaymiz.

...11. Bizning pomestemizdagи bizning garovga ushlangan odamimizni, boshqaruvchilardan birortasi o`zining vassaliga aylantirmasliklari lozim.

...18. Bizning tegirmonlarimiz qoshida tovuq, o`rdaklar bo`lishi zarur, qanday tegirmonligiga qarab, qancha ko`p bo`lsa shuncha yaxshi.

Pomestemizda asosiy g'alla omborlari qoshida tovuqlarning soni 100 dan, g'ozlarning soni 30 dan kam bo`lmisin. Xutorlarda esa tovuqlarning soni 50 dan, g'ozlarning soni 12 dan kam bo`lmisin.

Har bir boshqaruvchi hukmdor saroyiga yil mobaynida maxsulotning ko`p miqdorda kelib turishi uchun g'amxo'rlik qilsin....

---

<sup>50</sup> <http://files.school-collection.edu.ru/dlrstore>

Bizning har bir pomestemizda boshqaruvchilar sigir, qo`y, echkilar uchun mumkin qadar ko`proq og'ilxonalar saqlashsin, busiz sira mumkin emas.

Har bir boshqaruvchi qachonki bizning stolimizga nimanidir qo`yishi lozim bo`lsa, buning uchun u javobgar shaxs hisoblanib, uning qo`ygan narsalari yaxshi va a`lo darajada bo`lsin, juda halollik bilan ozoda holda tayyorlanishi zarur.

Hukmdorning qaramog'ida yashovchi provendariylarga va ayollar uyiga ham nima berish kerak bo`lsa, har yili ajrata olib o`z vaqtida to`liq holda tarqatilsin, lekin bularning qaerdan olinganligi va nima ish uchun sarflanganligini bizga xabar qilishni yoddan chiqarmaslik lozim.

Har bir boshqaruvchi sotib olibmi yoki boshqa biror yo`l bilanmi doyimo va birinchi darajali urug'ga ega bo`lish uchun g'amxo'rlik qilsin.

Urug' uchun ishlatishga ajratilgach va boshqa ishlarga sarflangan qolgan hamma mahsulotlar bizning buyrug'imizgacha saqlanib, bizning buyrug'imizga muvofiq sotilsin yoki bo`lmasa zahirada qoldirilsin.

Qo`l bilan tayyorlanadigan yoki bajariladigan hamma narsani diqqat bilan kuzatib borish zarur, jumladan; mol yog'i, quritilgan go`sht, yangi go`sht, uzum vinosi, uksus, mayda mevalardan ishlangan vino, qaynatilgan meva sharbati, tayyorlangan baliq, gorchitsa, pishloq, yog', asalli ichimliklar, tabiy asal, un – bularning barchasi juda ozodalik bilan tayyorlanishi va ishlanishi lozim.

Bizning o`rmon, chakalakzor va qo`riqxonalarimiz yaxshi qo`riqlanishi zarur; agar qaysi joylarni tozalash qulay bo`lsa, tozalab bunday dalalarda buta va o`rmonlarning o`sishiga yol qo`ymaslik lozim, qaerda o`rmon bo`lishi zarur bo`lsa, u joyda sira ham daraxtni chopish va qirqishga yol qo`yilmasin, chakalakzor, qo`riqxonalardagi hayvonlarni qo`riqlash kerak bo`lgan qirg'iy va lochinlarga ham diqqat e'tibor bilan berish zarur... Boshqaruvchilar, shuningdek oqsoqollar va ularning odamlari, bizning o`rnimizga cho`chqalarni o`tlash uchun kiritishsa, u holda ular birinchi bo`lib belgilangan desyatini to`lashsin, bu bilan ular boshqalarga to`liq desyatina to`lashda yaxshi o`rnak ko`rsatishsin.

Bizning ekin maydonlarimizga ishlov berib, yaylovlarimizni doimo qo`riqlab turish lozim.

Bizning ehtiyojimiz uchun doimo yetarli miqdorda boqilgan g'oz va tovuqlarga ega bo`lib turish zarur.

Har bir boshqaruvchi bizning pomestemizda alohida qushlarni, tovuslar va qirg'ovullarni, o`rdaklar va kaptarlarni, kaklik va musichalarning hammasini ularning xislat va afzalliklari uchun doymo saqlashi zarur.

Bizning hovlilardagi imoratlar (podshoga xos) va ularni o`rab olgan devorlar yaxshi qo`riqlanishi kerak va og'ilxonalar, oshxonalar, novvoyxonalar, uzum ezadigan oxur joylari puxta qurilgan bo`lib, bizning xizmatchilarimiz u yerda o`z vazifalarini ozodalikka rioya qilgan holda yaxshi bajarishlari lozim.

Har bir pomestedagi alohida dam olish xonalarida choyshab, par to`shak, yostiq dasturxon, do`konlarda; gilamlar, mis, jez, temir va yog'och idishlar.... Zanjirlar, qarmoqlar, randalar, boltalar, to`qmoqlar, parmalar, burg'ilar, pichoq va har xil idishlar bo`lsinki, hech qachon biror yerdan so`rash yoki qarz olishga ehtiyoj qolmasin. Boshqaruvchilar urushga kerkli urush aslahalariga ham ega bo`lishsin, ular doimo bekamu ko`s, buzilmagan holatda turishi lozim, urush vaqtida olinib, so`ng yana joyiga qayta topshirilsin.

Ayollar joylashgan bizning xonalarimizga ishlash uchun belgilangan xom ashyni; zig'ir tolasi, jun, vayda, qirmizi va qizil rangli bo`yoq, jungni tarash uchun taroq, tivist,sovun, yog', idish va u erga kerak bo`ladigan boshqa mayda-chuyda narsalarni o`z vaqtida etkazib berish zarur.

Har bir boshqaruvchi o`zining qarmog`ida yaxshi ustalarga: temirchilar, oltin va kumush bilan ishlovchi ustalar, etikdo`zlar, charxchilar, duradgorlar, qurolsozlar, baliq ovlovchilar, qush ovlovchilar,sovungarlar, pivo pishiruvchilar, olmadan, nokdan va boshqa mevadan ichimlik tayyorlovchilar, bizning ehtiyojimiz uchun bug'doy non tayyorlovchi novvoylar, baliq ovlash va qush ovlash uchun to`r to`qishni yaxshi biladigan, shuningdek yana sanasak chozilib ketadigan boshqa xizmatchilarga ega bo`lishlari kerak.

Bizning qo`riqxonalarimizni qayta qurishgacha olib bormaslik uchun yaxshi saqlab, doyimo o`z vaqtida qarab turish zarur. Boshqa hamma qurilishlarimizga nisbatan ham shunday munosabatda bo`lish lozim.

Bizning pomestemizdagi uzum ezadigan ohurlarimiz yaxshi joylashgan bo`lishi haqida boshqaruvchi g`amho`rlik qilishi lozim, bizning uzumimizni hech bir uzum ezuvchi oyog`i bilan ezmash, hammasi toza va halol bo`lsin.

Har bir boshqaruvchi bitta otxonada nechta ayg`ir bo`lishini va ular bilan nechta otboqar bo`lishini bilsin. Bu orboqarlar agar erkin kishilardan bo`lib, o`z xizmatlari uchun benefitsiyga ega bo`lishsa, ularning benefitsiy daromadlari hisobiga yashashsin. Agar kimki unisiga ham, bunisiga ham ega bo`lmasa, xo`jayinning daromadidan maosh olsin.

Har bir boshqaruvchi yomon niyatli kishilardan bizning urug`lik donimizni yashirmasliklarini kuzatib borishi zarur, aks holda unib chiqqan ekinimiz siyraq bo`lishi mumkin.

Bizning fisk va pomestelarimizda yashovchi turli kishilarga erkin, qul yoki krepostnoylarga (boshqaruvchi) har biriga tegishli to`liq va haqqoniy ravishda sud hukmlarini qo`llashlarini istaymiz.

Har bir boshqaruvchi odamlarimizning bekorga bozor kezib yurmasdan yaxshi ishslashlarini kuzatib borsin.

Hamma boshqaruvchilar ehtiyojimiz uchun ajratgan, sarflagani bergan narsalarini bir ro`yhatga va o`zlarini sarflaganlarini boshqa bir ro`yhatga yozib borishga buyruq berishsin, boshqa alohida ro`yhatga esa qancha ortib qolgan narsalarning ma'lumotlarini berishlarini istaymiz.

Har bir boshqaruvchi, bizning odamlarimizning haqqoniy yashashlari uchun o`zining okrugida tez-tez sud o`tkazib, hukmini chiqazib tursin.

Qachon boshqaruvchilarga kuchuk bolasini boqib o`stirish topshirilsa, boshqaruvchi uni o`z hisobidan boqsin yoki uni o`zining yordamchisiga topshirsin, ya`ni oqsoqolga, o`nboshiga... ular ham o`z hisoblaridan yaxshi boqishsin, qachonki uni bizning pomesteda bizning hisobimizdan boqilsin degan buyruq

berilsa, u holda boshqaruvchi buning uchun (alohida) odam ajratsin, u alohida ajratilgan ovqat bilan uni yaxshilab boqsin<sup>51</sup>.

Starostalar hech qachon kuchli kishilardan emas, balki o`rta mulkli va sodiq kishilardan qo`yiladi.

Boshqaruvchilarimiz navbat bilan har yili rojdestvo kunida alohida hamma daromadlarimiz haqida bizga aniq ma'lumot berib turishsin, shu bilan biz alohida moddalar bo`yicha qancha daromadga egaligimizni bilishimiz lozim; ya`ni qancha ho`kiz bilan haydalgan... qancha cho`chqa bolasi olingan, qancha obrok, qanchasi qarz, majburiyatlaridan va sud jarimalaridan olingan, bizning o`rmonlarimizdan qanchasi, ekin maydonlaridan qanchasi, ko`prik, kemalardan qanchasi, erkin kishilardan qanchasi bizning fisk ehtiyojimiz uchun xizmat qiladi, bozorlardan nechtasi, tokzorlardan qancha... qancha pichan, qancha o`tin, qancha o`rmon materiallari, bo`s sh yerlardan qancha, qancha sabzavot, qancha bug'doy va arpa, qancha jo`n, qanor va zig'ir tolasi, mevali daraxtlardan qancha, qancha yong'oq, turli turdag'i payvand qilingan daraxtlardan qancha, qancha teri, mo`yna, asal... yog' vasovun, asaldan tayyorlangan ichimlik va sirk, pivo, uzumdan tayyorlangan vino – yangisi, eskisi, donning yangisi va eskisi, tovuq, tuxum, g'oz qancha, baliq ovlovchilar, temirchilar, qurolosozlar, etikdo`zlar, sandiqchilar, chilangarlar, duradgorlar, konchilar qancha kabi savollarga javoblar bizga topshirilsin<sup>52</sup>.

Urush aslahalari – urushga boradigan aravalalarimiz yaxshi ishlanib, usti charm bilan qoplangan bo`lishi lozim.

Bog'larda hamma o`simliklarning bo`lishini istaymiz (sabzavotlarning ham) ya`ni (quyida o`simliklarning 73 nomi keltiriladi) : daraxtlardan olma, nok, olho`rining turli navlari, ryabina, qizil kashtan, shaftoli va behi daraxtlari, yong'oq, bodom, tut, lavr, daraxtlari... turli navdag'i olchalar...

---

<sup>51</sup> Хорошилов А. Н. История государства и права зарубежных стран. – Москва: МГИИ, 2015. –С. 31.

<sup>52</sup> Хорошилов А. Н. История государства и права зарубежных стран... –С. 32.

“Sali haqiqati”dan mayishiy turmushga oid bir necha moddalar mavjud. Masalan, XXIX bo`limda mayib qilganligi haqidagi moddalar bor. Masalan, kimdir birovning qo`li yoki oyog’iga ziyon etkazsa, burnini sindirsa yoki ko`zini o`yib olsa 100 solid to`lashi kerakligi yozilgan 1-modda mavjud. Bo`limning 2-moddasi va yana ularga 5 ta qo`shimcha bandlar ham shu ziyonlar bilan bog’liqdir. Tabiiyki, insonning hayot kechirishida bu tana a`zolarining o`rni katta, shuning uchun to`lov ham yirik. Bo`limning 3-moddasidadan tana a`zolarining ziyoniga turli jazolar belgilangan:

“4-qo`shimcha. Agar kimki birovning ko`zini o`yib olsa 2 solid to`lashga hukm qilinadi.

5-qo`shimcha. Agar burnini uzib olsa, 45 solid to`lashga hukm etiladi.

6-qo`shimcha. Agar qulog’ini uzib olsa, 15 solid to`lashga hukm qilinadi”.

“Sali haqiqati”ning XVI bo`limida mayishiy turmushning ayrim ko`rinishlari ko`zga tashlanadi:

“...2. Agar kimki birovning uyini qo`shimcha imoratlari bilan yondirsa, aybi fosh qilinib, 63 solid to`lashga hukm qilinadi.

3. Agar kimki birovning omborini yoki o`rilgan g’allasini yondirsa, 63 solid to`lashga hukm qilinadi.

4. Agar kimki birovning cho`chqaxonasini cho`chqalari bilan, yoki og’ilxonasini mollari bilan yondirsa, javobgarlikka tortilib, yongan narsa baxosi va zararini qoplash hisoblanmay, 63 solid to`lashga hukm qilinadi.

5. Agar kimki birovning devorini yoki to`sig’ini yondirsa, 15 solid to`lashga hukm etiladi”<sup>53</sup>.

XX bo`lim esa o`zoro munosabatlarning ayrim jihatlarini ko`rsatib beradi. Masalan, erkin ayolning qo`lidan, panjasidan yoki barmog’idan ushlaganligi haqida.

“1. Agar qandaydir erkin kishi erkin ayolning qo`lidan panjasidan yoki barmog’idan ushlasa, javobgarlikka tortilib, 15 solid to`lashga hukm qilinadi.

---

<sup>53</sup> <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>

2. Agar kimki panjasini siqsa, 30 solid to`lshga hukm etiladi.
3. Agar u qo`li bilan tirsakdan yuqorisini ushlasa, 35 solid to`lashga hukm qilinadi".

“Sali haqiqati”ni taxlil qilish orqali franklar xo`jaligi, mayishiy turmush tarzi hasidagi asosiy ma`lumotlarni bilib olish mumkin. Ushbu to`plam faqatgiga bir jamiyatning ijtimoiy hayotini belgilovchi sonunlar to`plamigina emas, balki tarixchilar uchun o`rta asrlarda Yevropa tarixi haqida ma`lumot beruvchi muxim manbadir. To`plamda yerga egalik munosabatlari, yangi tabaqalanish tizimining vujudga kelishi, qirol va yuqori aristokratiyaning shakllanishi haqida kerakli ma`lumotlar topiladi. "Sali haqiqati" franklar hayoti haqida keng ma`lumot beruvchi manbadir.

"Sali haqiqati"da o`rin olgan 65 bo`lim, alohida 7 ta kaputulyariy va ulardan tashqari xulosalar o`sha davrda butun bir ijtimoiy tuzumni nazorat qilgan, deb xulosa chiqarish mumkin. "Sali haqiqati" va shunga o`xshash qonunlar tanqidlarga, to`sqliqlarga uchrashiga qaramasdan shu davrgacha etib keldi. Eng muhimi hozirgi Yevropa va jahon qonunchiligining rivojlanishiga o`z xissasini qo`shdi.

## X U L O S A

Mustaqillik yillarda har sohada ulkan ijobiy o`zgarishlar ro`y berdi. Jumladan jahon mamlakatlari tarixini o`rganishga ham alohida e'tibor berilishi kengroq va davriylik asosida o`rganishga imkon berdi. Bir ming ikki yuz yildan ortiqroq davr mobaynida hukm surgan o`rta asrlar tarixi o`zining mazmun-mohiyati bilan boshqa tarix davrlaridan ajralib turadi. III bosqichdan iborat bu davrda kishilik jamiyatining taraqqiyoti, feodal davlatlarining inqirozi, mutloq monarxiyaning xususiyatlari bilan bir qatorda jamiyatning tarixan shakllangan turmush tarzini ko`rish mumkin. Feodal tuzum qaror topib borar ekan, hukmron sinfning manfaatlari yo`lida joriy qilinayotgan yangi-yangi imtiyozlar, farmon va

qonunlar oddiy mehnatkash xalqning tobora qashshoqlashib, nochor ahvolga tushib qolishiga sabab bo`ldi.

O`rta asrlar tarixi feodalizmning paydo bo`lishi, rivojlanishi va uning yemirilishidan iborat tarixiy taraqqiyot jarayonini o`rganadi. O`rta asrlar tarixining xronologik chegarasi keng va murakkabdir. Chunki feodal tuzum jahondagi davlatlarning ayrimlari III asrda, ba`zilari esa VII asrda boshlanadi. Biz bitiruv malakaviy ishda jahon xalqlari tarixidagi yaxlitlikni buzmaslik maqsadida Yevropa xalqlari xronologik doirasini asos qilib oldik. Bu o`rta asrlar tarixi mazmuninig butunligiga putur etkazmaydi. O`rta asrlar tarixida manba xajmining kengligi va murakkabligi jiddiy qiyinchilik tug`diradi.

Yuqorida biz o`rta asrlarda turli xil jarayonlarni bevosita bir necha manbalardan misol keltirish orqali franklarning turmush tarzini ochib berishga harakat qildik.

Tarixiy manbalarni o`rganishda turli usullardan foydalanish mumkin. “Sali haqiqati” matni ustida ishlashda keng ma’nodagi materiallarni solishtirishda bitta manba doirasida ish olib borilsa, hujjatlarni o`rganishda turli manbalardagi ma’lumotlarni keng ko`lamdagagi solishtirish ishini olib boorish kerak bo`ladi. Chunki har bir tarixiy manbani o`rganishda, uning qachon va qanday sharoitda paydo bo`lganligini e’tiborga olib mustaqil holda manbaga to`g’ri baho bera olishi lozim.

Shu davrning saloxiyati, tarixiy saboqlari qancha chuqurroq o`rganilishga harakat qilingan sari yangi-yangi boy tarixiy ma’lumotlarning guvoxi bo`lmoqdamiz. Bu davrning tarixiy saboqlari, hozirgi va kelajak avlod uchun namunaviy ma’naviy tarbiya rolini bajarishda zaruriy, kerakli manba bo`ladi degan niyatda ushbubitiruv malakaviy ishi yozildi.

Ana shu maqsadda ushbu bitiruv malakaviy ishi yangi va dastlabki manbalar asosida yozilganligi, yosh avlodga, ayniqsa, talaba yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda, “Sali haqiqati” va franklar tarixi haqida yangi bilimlarga ega

bo`ladigan tarixiy haqiqat asosida ularga nisbatan to`g`ri tushuncha paydo bo`lishi muqarrar degan xulosaga kelamiz.

“Sali haqiqati” va franklarning ma’naviy-madaniyatini talaba yoshlarga o`rgatilar ekan, ulardan kutiladigan asosiy maqsad yoshlarimiz kelajakda ma’naviyatli, komil inson bo`lishidir. Chunki yuksak ma’naviyatli inson umumxalq manfaatini kuzlab, davlat va jamiyat uchun o`z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog’laydi, Vatan uchun kuyib-yonadi, Vatan ruxi bilan yashaydi. Vatan kuch-qudratini oshirishga, mustahkamlashga bor kuchi, imkoniyati va bilimini sarf qiladi. Bu kabi izlanishlar keyingi ilmiy tadqiqotlarga mavzu b o`lishini tavsiya qilamiz.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida “Sali haqiqati”ni yoritilishi davr manbalarida qanday bo`lganligi va ularning ahamiyati haqida fikr yuritilib yoshlarga, umuman, talabalarga ta’lim-tarbiya berishda o`quv qo`llanma sifatida foydalanishni asosiy maqsad qilib qo`yilgan va chop etishga tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

### **I. Bitiruv Malakaviy ishi uchun nazariy asos bo`lgan adabiyotlar ro`yxati:**

- 1.1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент, 1998. – 31 б.
- 1.2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.3. Каримов И.А. Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли ва аҳамияти мавзусидаги халқаро конференсиянинг очилиш маросимидаги нутқи. Халқ сўзи. 2014 йил 17 май.
- 1.4. Каримов И.А. Ўзбекистон республикаси конституцияси қабул қилинганинг 23-йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маърузаси. Ўзбекистон овози. 2015 йил. 6 декабрь.

### **II. Adabiyotlar:**

- 2.1. Всемирная история. Том III. – Москва, 1957. – С. 896.
- 2.2. Грацианский Н.П. Западная Европа в средние века. – Москва, 1926. – С. 560.
- 2.3. Грацианский Н.П. Бургундская деревня в X-XII столетиях. – Москва, 1935. – С. 214.
- 2.4. Грацианский А., Сказкин С. Хрестоматия по истории средних веков. 1-том. – М., 1953. – С. 524.
- 2.5. История средних веков. Хрестоматия. – Москва: Просвещение, 1974. – С. 364.
- 2.6. Салическая правда. – Москва, 1950. – С. 258.
- 2.7. Социальная история средневековья. 1-том. – Москва, 1927. – С. 246.

- 2.8. Томсинов В.А. История государства и права зарубежных стран (Древность и Средние века). – Москва: Зерцало, 2001. – С.
- 2.9. Хрестоматия памятников феодального государства и права стран Европы. – Москва: Госюриздан, 1961. – С. 324.
- 2.10. Фюстел де Куллянж. История общественного строя древней Франции. – Москва, 1907. – С. 322.
- 2.11. Хорошилов А. Н. История государства и права зарубежных стран. – Москва: МГГИИ, 2015. – С. 43.
- 2.12. Қурбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихидан ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.
- 2.13. Madaminov T. O’rta asrlar tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 86.

### **III. Internet materiallari**

- 3.1. <http://www.hrono.ru/dokum/0500dok/salpravda.php>
- 3.2. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
- 3.3. <http://www.hist.msu.ru/ER/Etext/salic.htm>
- 3.4. [http://www.osh.ru/pedia/history/west/dark\\_ages/salica.shtml](http://www.osh.ru/pedia/history/west/dark_ages/salica.shtml)
- 3.5. <http://files.school-collection.edu.ru/dlrstore>
- 3.6. <http://xn----8sbfgcbeuwy4al.xn--p1ai/post>
- 3.7. <http://justice.1gb.ru/helpme/1/30.htm>